

ISSN: 2687-0142

**ИНТЕРНАУКА**

**НАУЧНЫЙ**

**ЖУРНАЛ**

**15(238)**

**часть 7**



[internauka.org](http://internauka.org)

г. Москва



## «ИНТЕРНАУКА»

*Научный журнал*

№ 15(238)

Апрель 2022 г.

Часть 7

Издается с ноября 2016 года

Москва  
2022

УДК 08  
ББК 94  
И73

Председатель редакционной коллегии:

**Еникеев Анатолий Анатольевич** - кандидат философских наук, доцент, доцент кафедры философии КУБГАУ, г. Краснодар.

Редакционная коллегия:

**Авазов Комил Холлиевич** - доктор философии (PhD) по политическим наукам;

**Бабаева Фатима Адхамовна** – канд. пед. наук;

**Беляева Наталия Валерьевна** – д-р с.-х. наук;

**Беспалова Ольга Евгеньевна** – канд. филол. наук;

**Богданов Александр Васильевич** – канд. физ.-мат. наук, доц.;

**Большакова Галина Ивановна** – д-р ист. наук;

**Виштак Ольга Васильевна** – д-р пед. наук, канд. тех. наук;

**Голованов Роман Сергеевич** – канд. полит. наук, канд. юрид. наук, MBA;

**Дейкина Алевтина Дмитриевна** – д-р пед. наук;

**Добротин Дмитрий Юрьевич** – канд. пед. наук;

**Землякова Галина Михайловна** – канд. пед. наук, доц.;

**Каноква Фатима Юрьевна** – канд. искусствоведения;

**Кернесюк Николай Леонтьевич** – д-р мед. наук;

**Китиева Малика Ибрагимовна** – канд. экон. наук;

**Кобулов Хотамжон Абдукаримович** – канд. экон. наук;

**Коренева Марьям Рашидовна** – канд. мед. наук, доц.;

**Кадиров Умарали Дусткабилович** - доктор психологических наук;

**Напалков Сергей Васильевич** – канд. пед. наук;

**Понькина Антонина Михайловна** – канд. искусствоведения;

**Савин Валерий Викторович** – канд. филос. наук;

**Тагиев Урфан Тофиг оглы** – канд. техн. наук;

**Харчук Олег Андреевич** – канд. биол. наук;

**Хох Ирина Рудольфовна** – канд. психол. наук, доц. ВАК;

**Шевцов Владимир Викторович** – д-р экон. наук;

**Щербаков Андрей Викторович** – канд. культурологии.

**И73 «Интернаука»:** научный журнал – № 15(238). Часть 7. Москва, Изд. «Интернаука», 2022. – 72 с. Электрон. версия. печ. публ. – <https://www.internauka.org/journal/science/internauka/238>

ББК 94

ISSN 2687-0142

© ООО «Интернаука», 2022

<b>Содержание</b>	
<b>О'zbek tilida maqolalar</b>	<b>5</b>
<b>Biologiya</b>	<b>5</b>
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ЯККАБОҒ ТУМАНИ ТАТАР ҚИШЛОҒИ ФЛОРАСИ Махмудова Мамлакат Мирғаниевна Шарипова Нилуфар Қуйчи қизи	5
<b>Axborot texnologiyalari</b>	<b>8</b>
НАҲОТИМИЗДА СУН'ИЙ ИНТЕЛЕКТ Jaxongir Mirzakulov	8
<b>San'at tarixi</b>	<b>11</b>
QORAQALPOQ NOMODDIY MADANIY MEROSLARI – DUNYO NIGOHIDA Pirnazarov Saubet Maxsetbayevich Mamutov Paraxat Allambergen o`g`li	11
ТАСВИРИЙ САҲЪАТДА КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ СИФАТИДА СТЕАМ ТАЪЛИМИНИ ТАТБИҚ ЭТИШ Султанов Хайтбой Эралиевич Бердиев Достон Абдувоитович	13
<b>Pedagogika</b>	<b>15</b>
ЭКОЭСТЕТИК МАДАНИЯТНИ БЎЛАЖАК МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУТАХАССИСЛАРИДА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР ТАМОЙИЛЛАРИ ВА МУҲИМ ОМИЛЛАРИ Ашурова Ойгул	15
ТА'ЛИМ БЕРИШ ЖАРAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O'RNI Davletov Nurlibay Aytmuratovich	17
O'ZBEKISTAN KOMPOZITORLARI ASARLARINI O'RGANISH Tayrova Ziyada Qidirbaevna	19
FORTEPIANO ASBOBIDA QO'L TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISH Xazieva Gyuzel Raisovna	22
<b>Muhandislik, ilm-fan</b>	<b>24</b>
«POYEZDLARNI TORTISH ASOSLARI» FANIDAN MUAMMOLI MA'RUZALARNI O'TISH Ablyalimov Oleg Sergeevich Keldibekov Zokirbek Olloberdiyevich G'ayratov Baxodirjon Iqboljon o`g`li	24
BAKALAVR TALABALARIGA MAXSUS FANLARNI O'QITISH BO'YICHA TA'LIM BERISH MASALALARI Ablyalimov Oleg Sergeevich Keldibekov Zokirbek Olloberdiyevich G'ayratov Baxodirjon Iqboljon o`g`li	28
O'ZBEKISTON TEMIR YO'LINING MAROQAND – KATTAQO'RG'ON QISM (UCHASTKA)SIDA DIZEL TORTUV LOKOMOTIVLARINING TASHISH ISHLARI KO'RSATKICHLARINI ASOSLASH Ablyalimov Oleg Sergeevich Otamurodov Umidjon Shavkatovich Yo`lchiyev Umidbek Ulug`bek o`g`li G'ayratov Baxodirjon Iqboljon o`g`li	32
DIZEL TORTUV LOKOMOTIVLARI ORQALI MAROQAND – KATTAQO'RG'ON QISM (UCHASTKA)SI YO'L PROFILINING TORTUV SIFATINI BAHOLASH Ablyalimov Oleg Sergeevich Yo`lchiyev Umidbek Ulug`bek o`g`li Otamurodov Umidjon Shavkatovich G'ayratov Baxodirjon Iqboljon o`g`li	36

<p>TEMIR YO'LNING TEKIS QISMIDA TO'XTASH PAYTIDA YUK POEZDINING HAKARAT PARAMETRLARINI BAHOLASH Ablyalimov Oleg Sergeyeovich Yo' lchiyev Umidbek Ulug'bek o'g'li A'zamjonov Shahzod Shavkatjon o'g'li G'ayratov Baxodirjon Iqboljon o'g'li</p>	40
<p>TEMIR YO'LNING TEKIS QISMLARIDA ELEKTR TORTUVCHI LOKOMOTIVLARINING YUK TASHISH SAMARADORLIGI TAHLILI Ablyalimov Oleg Sergeyeovich A'zamjonov Shahzod Shavkatjon o'g'li Yo' lchiyev Umidbek Ulug'bek o'g'li G'ayratov Baxodirjon Iqboljon o'g'li</p>	44
<p>TEMIR YO'LNING TEKIS QISMLARIDAGI BEKATLARIDA YUK POYEZDLARINING HAKARATINI TAHLIL QILISH Ablyalimov Oleg Sergeyeovich Yo' lchiyev Umidbek Ulug'bek o'g'li A'zamjonov Shahzod Shavkatjon o'g'li G'ayratov Baxodirjon Iqboljon o'g'li</p>	51
<p>QATNOV TARMOQLARI UCHUN YUTUQ PARAMETRINI OPERATIV HISOBLASH YO'LLARI Ablyalimov Oleg Sergeyeovich Sagatova Muborak Abdumalik qizi</p>	56
<p>TEMIR YO'L UCHASTKASI BO'YLAB HAKARAT OPTIMAL VAQTI VA POYEZD BOSHQARUV REJIMINING HISOBIV TAHLILI Ablyalimov Oleg Sergeyeovich Sagatova Muborak Abdumalik qizi</p>	59
<p>TEXNOLOGIK JAROYONLARNI MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA AVTOMATLASHTIRISH Allambergenova Mexribanu Mirzabek qizi</p>	63
<p>ИНВЕРТОРНИНГ ҚЎШИМЧА ЭЛЕКТР ТАЪМИНОТИ МАНБАЛАРИ АСОСИДА ИШЛАШ ФУНКЦИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ Шаймардонов Ж.З. Ибрагимов У.М.</p>	65
<p><b>Filologiya</b></p>	<b>69</b>
<p>МАКТАВ ДАРСЛИКЛАРИГА КИРИТИЛГАН АЙРИМ ИКОЯЛАРНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАХЛИЛИ Qarshiyev Nasriddin Tirkashevich Absayitova Shahlo To'liqinjon qizi</p>	69

## O'ZBEK TILIDA MAQOLALAR

## BIOLOGIYA

## ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ЯККАБОҒ ТУМАНИ ТАТАР ҚИШЛОҒИ ФЛОРАСИ

*Махмудова Мамлакат Мирганиевна**Доцент,**Ўзбекистон Миллий университети,**Ўзбекистон, Тошкент**Шарипова Нилуфар Қўйчи қизи**Магистр,**Ўзбекистон Миллий университети,**Ўзбекистон, Тошкент*

Маълумки, алоҳида бир худуднинг флорасини ҳар томонлама ўрганиш, шу худуд турларининг турлар таркибини, шу билан бир қаторда камайиб бораётган турларни аниқлаш имконини беради. Бу эса ўз навбатида мазкур турлардан самарали фойдаланиш имконини беради [1,2].

Қашқадарё вилояти Яккабоғ тумани Татар қишлоғи флораси устида илмий тадқиқот ишлари олиб борилди. Олиб борилган изланишлар натижасида мазкур худудда 37 оилага мансуб 79

туркум ва 93 тур ўсиши аниқланди. Шулардан, энг кўп турлар бугдойдошлар (10 тур) ва қоқиўтдошлар (10 тур) оиласига хосдир; кейинги икки ўринда ялпиздошлар (9 тур) ва бурчокдошлар (9 тур) оилалари туради. Қолган оилалар эса бештадан то биттагача туркум ва тур тутади.

Қашқадарё вилояти Яккабоғ тумани Татар қишлоғи ўсимликларининг ҳаётий шакллари И.Г.Серебряков ва К.Раункиер методлари бўйича ўрганилди (1-жадвал).

*1-жадвал.*

## Ўсимликларнинг ҳаётий шакллари (И.Г.Серебряков, К.Раункиер)

№	Оила	Туркум турлар	Серебряков	Раункиер
1	Equisetaceae	Equisetum arvense L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
2	Pinaceae	Pinus silvestris L.	Дарахт	Фанерофит
		Pinus eldarica L.	Дарахт	Фанерофит
3	Cypressaceae	Juniperus virginiana L.	Дарахт	Фанерофит
4	Ranunculaceae	Clematis orientalis	Бута	Фанерофит
		Ranunculus repens	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		Nigella sativa L.	Бир йиллик	Терофит
5	Papaveraceae	Roemeria refracta DC.	Бир йиллик	Терофит
6	Caryophyllaceae	Dianthus tetralapis Nevki.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
7	Amaranthaceae	Amaranthus retroflexus L.	Бир йиллик	Терофит
8	Chenopodiaceae	Chenopodium album L.	Бир йиллик	Терофит
		Spinacea turkestanica Iljin	Бир йиллик	Терофит
		Salsola dendroides Pall.	Чала бута	Хамефит
9	Portulacaceae	Portulaca oleracea L.	Бир йиллик	Терофит
10	Polygonaceae	Polygonum aviculare L.	Бир йиллик	Терофит
11	Platanaceae	Platanus orientalis L.	Дарахт	Фанерофит
12	Fagaceae	Quercus robur L.	Дарахт	Фанерофит
13	Betulaceae	Betula pendula L.	Дарахт	Фанерофит
14	Juglandaceae	Juglans regia L.	Дарахт	Фанерофит
15	Salicaceae	Salix purpurea L.	Дарахт	Фанерофит
		Salix alba L.	Дарахт	Фанерофит
		Salix babylonica L.	Дарахт	Фанерофит
		Salix excelsa S.G.Gmel.	Дарахт	Фанерофит
		Populus nigra L.	Дарахт	Фанерофит
		Populus alba L.	Дарахт	Фанерофит

№	Оила	Туркум турлар	Серебряков	Раункиер
16	Brassicaceae	<i>Capsella bursa-pastoris</i> (L.)	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Strigosella trichocarpa</i> Botsch.	Бир йиллик	Терофит
		<i>Cardaria repens</i> (Schrenk) Jarm.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
17	Moraceae	<i>Morus alba</i> L.	Дарахт	Фанерофит
		<i>Morus nigra</i> L.	Дарахт	Фанерофит
18	Euphorbiaceae	<i>Euphorbia lamprocarpa</i>	Кўп йиллик	Гемикриптофит
19	Rosaceae	<i>Rosa canina</i> L.	Бута	Фанерофит
		<i>Rosa beggiriana</i>	Бута	Фанерофит
		<i>Potentilla orientalis</i> Juz.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Potentilla supina</i> L.	Бир йиллик	Терофит
		<i>Potentilla reptans</i>	Кўп йиллик	Гемикриптофит
20	Fabaceae	<i>Sophora japonica</i>	Дарахт	Фанерофит
		<i>Astragalus turkestanus</i> Bunge	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Alhagi pseudalhagi</i> (Bieb.) Fisch.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Glycyrrhiza glabra</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Onobrychis grandis</i> Lipsky	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Melilotus officinalis</i> (L.) Pall.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Medicago lupulina</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Trofolium campestre</i> Schreb.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
21	Aceraceae	<i>Acer turkestanicum</i> Pax.	Дарахт	Фанерофит
		<i>Acer pubescens</i> Franch.	Дарахт	Фанерофит
22	Geraniaceae	<i>Geranium Regelii</i>	Бир йиллик	Терофит
		<i>Geranium divaricatum</i>	Бир йиллик	Терофит
23	Zigophyllaceae	<i>Tribulus terrestris</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
24	Elaeagnaceae	<i>Elaeagnus orientalis</i> L.	Дарахт	Фанерофит
25	Apiaceae	<i>Daucus carota</i> L.	Икки йиллик	Терофит
		<i>Bunium intermedium</i>	Кўп йиллик	Гемикриптофит
26	Rutaceae	<i>Haplophyllum perforatum</i> (MB)	Кўп йиллик	Гемикриптофит
27	Asteraceae	<i>Artemisia vulgaris</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Artemisia absinthium</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Xanthium strumarium</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Acroptilon repens</i> (L.) DC.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Centaurea squarrosa</i> Willd.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Taraxacum officinale</i> Web.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Achillea millefolium</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Cousinia strobilocephala</i> Tschern.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Carduus albidus</i> M.B.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Cichorium intybus</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
28	Solanaceae	<i>Solanum nigrum</i> L.	Бир йиллик	Терофит
		<i>Datura stramonium</i> L.	Бир йиллик	Терофит
29	Convolvulaceae	<i>Convolvulus arvensis</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
30	Cuscutaceae	<i>Cuscuta lehmanniana</i> Bunge	Бир йиллик	Терофит
31	Boraginaceae	<i>Trichodesma incanum</i> (Bunge)	Кўп йиллик	Гемикриптофит
32	Oliaceae	<i>Fraxinus pensylvanica</i>	Дарахт	Фанерофит
33	Plantaginaceae	<i>Plantago lanceolata</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
34	Lamiaceae	<i>Scutellaria galericulata</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Marrubium alternidens</i> Rech.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Lamium album</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Leonurus turkestanicus</i> V.Kreecz.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Salvia sclarea</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Salvia virgata</i> Jacq.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Ziziphora tenuior</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Melissa officinalis</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Origanum tyttanthum</i> Gontsch.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Mentha arvensis</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
35	Alliaceae	<i>Allium severtzovii</i> Regel	Кўп йиллик	Гемикриптофит
36	Cyperaceae	<i>Cyperus rotundus</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Carex songarica</i> Kar. et Kir.	Кўп йиллик	Гемикриптофит

№	Оила	Туркум турлар	Серебряков	Раункиер
37	Poaceae	<i>Cynodon dactylon</i> (L.) Pers.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Echinochloa crus-galli</i> (L.) et Sch.	Бир йиллик	Терофит
		<i>Setaria lutescens</i> Weig.	Бир йиллик	Терофит
		<i>Poa bulbosa</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Hordeum bulbosum</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Stipa capillata</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Avena trichophylla</i> C.Koch.	Бир йиллик	Терофит
		<i>Dacrylis glomerata</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит
		<i>Bromus scoparius</i> L.	Бир йиллик	Терофит
		<i>Agropyron repens</i> L.	Кўп йиллик	Гемикриптофит

Жадвалдан кўришиб турибдики, худудда учрайдиган ўсимликларнинг ҳаётий шакллари таҳлили шуни кўрсатдики, И.Г.Серебряков классификацияси бўйича: 19 тур дарахт, 3 тур буга, 1 тур чала буга (шўрбуга -*Salsola dendroides*) ( расм), 1 та тур икки йиллик ўсимлик (ёввойи сабзи-*Daucus carota*) ( расм), 47 тур кўп йиллик ўсимликлар ҳисобланади. К.Раункиер классификацияси бўйича:

энг кўп турлар гемикриптофит 50 тур, энг кам турлар хамефит (1 тур:шўрбуга -*Salsola dendroides*) гуруҳига мансуб.

Шундай қилиб, худудда И.Г.Серебряков классификацияси бўйича кўп йиллик ўт ўсимликлар; К.Раункиер бўйича эса гемикриптофитлар устунлик қилиши кузатилди.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. Пратов Ў., Юлдашев А. Яшил олам мўъжизалари. –Тошкент: “Ўқитувчи”,-2011.
2. Розиков К.Х., Тўхтаев А.С., Нигматов А.И., Султонов Р.Н. Экология ва атроф муҳит муҳофазаси ҳақида етти сабоқ.-Тошкент: “Chinor ENK”, 2004.

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

### HAYOTIMIZDA SUN'IY INTELEKT

*Jaxongir Mirzakulov*

*Magistr,  
Buxoro davlat universiteti,  
Uzbekistan, Buxoro*

#### ANNOTATSIYA

Sun'iy intellekt hozirgi kunda turli xil sohalarda jadal rivojlanib bormoqda. Sun'iy intellekt bir nechta sohalarda qo'llanilishi mumkin, jumladan tibbiyot sohasi yoki haydovchisiz boshqariladigan mashinalar kabi innovatsion texnologiyalarni yaratishda. Sun'iy intellekt texnologiyasidan Netflix yoki Spotify kabi dasturlarda ham foydalaniladi. Bu turdagi dasturlar foydalanuvchilarning odatlarini kuzatadi va ularning yaqinda amalga oshirgan faoliyati asosida ularga tavsiyalar beradi. Banklar ham sun'iy intellektdan mijozlarining mablag'lari o'g'irlanmasligi uchun ularning hisoblarini kuzatib borishda, qarzlarni berishda va online xavfsizlikni ta'minlashda foydalanishadi. Bu maqolaning maqsadi sun'iy intellekt qanday qilib turli xil sohalarda rivojlangan texnologiyalarni yaratgan holda kelajakda jamiyatni samarali faoliyatini tashkil qilishini ko'rsatishdir.


#### Kirish

Sun'iy intellekt 1950 yillar atrofida paydo bo'la boshladi. 1956 yil turli xil soha vakillari sun'iy aqlni yaratish haqida suhbatlashishdi. Shu yili John McCarthy Dartmouth kollejidagi SI konferensiyasida Sun'iy Intellekt atamasini fanga kiritdi. McCarthy matematika fani professori bo'lib uning bu tushunchani fanga kiritishiga sabab uning fikricha o'rganish va intellektning har bir sohasini aniq hisoblash mumkin va bunga texnika ham taqlid qilishi va amalga oshirishi mumkin.


Sun'iy intellekt o'sha paytlardan beri uzoq yo'l bosib o'tdi va hozirda bizning kundalik hayotda bizga yordam bermoqda. SI kundan kunga o'sib bormoqda va komputer dasturlarni yaratayotgan odamlar to'liq SI ga asoslangan avtonomatlashtirilgan texnikalar yaratish uchun harakat qilishmoqda.

#### Transport tizimida SI

**Yandex Go** foydalanuvchilararo taxi xizmatini amalga oshiruvchi dastur. Bu tizim taxi xizmatiga telefon qilishdan ko'ra qulayroqdir. Avvallari shaharda sizga taxi kerak bo'lib qolsa, siz taxi markaziga telefon qilishingizga to'g'ri kelardi, u esa o'z navbatida sizning joylashgan joyingiz yaqinidagi biror taxi haydovchisini javobini kutardi va sizga yetkazardi. Yandex Go tizimida esa siz shunchaki telefoningizdagi dasturning bitta tugmasini bosasiz, siz tizimdan o'tkaningizdan keyin sizga tizimning o'zi eng yaqin haydovchini topib beradi. Odatda Yandex Go orqali biror joyga borishingiz odatdagi taxi narxiga qaraganda ancha arzonroq bo'ladi. Shuningdek, Yandex Go odatda boshqa taxi mashinalariga nisbatan tezroq yetib keladi. Tirband shaharlarda haydovchining taxminiy kelish vaqti 2 minut atrofida bo'ladi.



*Rasm 1. Asosiy oyna*



*Rasm 2. Buyurtma berish oynasi*


Rasmda siz telefon ilovasi qanday qilib mijozning ma'lumotini olishi va haydovchining qayerda ekani va yo'l haqi haqidagi ma'lumotlarni ko'rsatayotganini ko'rishingiz mumkin. Bu xizmat umumiy olganda oddiy taxida yurganingizdan ko'ra yaxshiroq, chunki bunda siz mashinadan tushganingizdan keyin haydovchiga o'zingizning bahongizni qo'yishingiz mumkin.

Boshqa yana bir qulayligi shundaki, agar sizda naqd pul bo'lmasa ham plastik karta to'lovi orqali siz dastur yordamida to'lovni onlayn amalga oshirishingiz mumkin. Yandex Go o'zining dasturlarida SI tizimlaridan foydalanadi. Biror kishi taxi buyurtma berganida, tizim avtomatik ravishda mazkur joy uchun qulay bo'lib turgan Yandex haydovchilari GPS tizimi orqali topadi. Mijoz qanday turdagi mashina kerak ekanligini tanlasa, eng

yaqinda turgan shu talabni qondiradigan transport vositasini aniqlaydi. Yana qo'shimcha imkoniyati ham bor: yetkazib berish xizmatidan foydalanish. Shuning uchun ham Yandex Go dasturi har bir holat uchun eng qulay haydovchini topish uchun juda katta ma'lumotlarni tartiblashi kerak.

### Internet tarmoqlarida SI

Internetdan foydalanganimizda biz hamma joyda "machine learning" ni kuzatishimiz mumkin. **Amazon**dan foydalanganingizda u sizga avvalgi qidirgan narsalaringiz asosida onlayn tavsiyalar berib boradi. Bu ham "machine learning"ni oddiy misoli bo'la oladi. Bu holatda Amazon sizning avvalgi xaridlaringizni yoki yaqindagi faoliyatiningizni o'rganadi.




Rasm 3. Amazon.com sayti tavsiyasi

Amazon bu kabi tavsiyalarni sizning onlayn qilgan ishlaringiz asosida yaratadi. Masalan, agar siz Google qidiruv tizimida qanday qilib audio tizimni ulashni qidirgansiz. Buning uchun siz ehtimol turli xil boshqa narsalar: ovoz kuchaytirgich, ovoz sozlagich, subufer kabi narsalarni ham qidirgan bo'lishingiz mumkin. Siz qidiruv tizimidan chiqib Amazon saytiga o'tganingizda u sizga yuqori ehtimollik bilan audio jihozlar to'g'risidagi tavsiyalarni beradi. Buni Amazon sizning yaqinda amalga oshirgan onlayn faoliyatingiz asosida o'rgandi.

**YouTube** da tavsiya berishning tizimining umumiy strukturasi quyidagi rasmda tasvirlangan.

Tizim 2 ta neyron tarmoqlardan tashkil topgan: birinchisi nomzod tomonidan hosil qilinadi va ikkinchisi baholash tizimi orqali hosil qilinadi. Nomzod tomonidan yaratiladigan tarmoq- foydalanuvchining YouTube'dagi ko'rgan videolarining tarixini o'rganadi va YouTube'da joylashgan ko'plab videolar to'plamidan kichik to'plam (yuzlab) videolarni ajratib oladi. Va bu tanlangan videolar yuqori aniqlik bilan aynan shu foydalanuvchi ko'rgan videolarga aloqador bo'ladi. Nomzod tomonidan yaratiladigan neyron tarmoq bir nechta filterlar orqali amalga oshiriladi va u aynan shu shaxsga tegishligini ta'minlaydi.



Rasm 4. Youtube saytida filtrlash


Bir nechta “eng yaxshi” tavsiyalarni ro’yxat bilan chiqarib berish uchun foydalanuvchilar tomonidan videoga eng ko’p murojaat qilinganlik darajasini aniqlash ham muhim sanaladi. Baholash neyron tarmog’i bu ishini har bir videoga bir nechta xususiyatiga qarab ball berish orqali amalga oshiradi. Eng yuqori ball olgan videolar ballaring o’rni bo’yicha tartiblangan holda foydalanuvchiga namoyish qilinadi.

Tavsiya qilishning bu 2 qadamlı yondashuvi bizga juda katta miqdordagi (millionlab) videolar ichidan juda kam sondagi (o’nlab) aynan foydalanuvchi uchun qiziqarli bo’lgan, u uchun moslashtirilgan videolarni qurilmalarda chiqarib beradi.

**Tibbiyot sohasida SI**

Bazida **Human Dx** ham deya yuritiluvchi Human Diagnosis loyihasi umumjahon tibbiy jamoasi tomonidan bemorlarga da’vo topishning eng qulay yo’lini tanlashga yordam berish maqsadida tashkil etilgan. Human Dx rasmiy veb sahifasida keltirilishicha, ular yangicha yondashuv, ya’ni super aqliy qobiliyatni “machine learning” va inson ongini birlashtirgan holda tadbıq qilishmoqda. Bu loyiha (Human Dx) dan sug’urtalanmagan insonlarga keraksiz doktorlarsiz tuzalish uchun eng qulay yo’llarni topishlarda foydalanib kelinmoqda.

Loyihaga umumiy miqdorda 80ta davlat va 500ta tibbiy institutlardan 8000 dan ortiq shifokorlar jalb etilgan.



Rasm 5 Kasalliklar nomlanishi



Rasm 6 Eng ko’p hissa qo’shganlar

Rasmda ko’rsatilganidek, har biri tibbiy holatni anglatuvchi ko’k aylanalar mavjud. Siz har bir aylanaga murojaat qilganingizda sizga kasallik haqida batafsil malumot beriladi va bu holat haqidagi ma’lumotlar tizimlashtirilishiga hissa qo’shgan odamlar ko’rsatiladi.

Human Dx interfeysi sizga doira atrofida loyihaga eng ko’p hissa qo’shuvchilarni ham namoyish etadi va siz qidirgan insonni qanday kasalliklar haqida ma’lumotlar bergani to’g’risidagi ma’lumot taqdim etiladi.

Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan qurilmalar hozirgi kunda tez sur’atlar bilan ommalashib bormoqda. Ular mashhur xizmatlar uchun maxsus

imkoniyatlarni taqdim qiladi. SI hayotning yangi sohalariga joriy qilinishda davom etadi. Yaratilgan SI dasturlari haqida ko’proq ma’lumotga ega bo’lish orqali ularni ma’lum sohalaridagi yanada murakkab vaziyatlar uchun moslashuvchan qilib yaratiladi. Shu o’rinda odamlar ham SI ning imkoniyatlarini tushunishlari kerak bo’ladi. Ba’zi insonlar o’zlarining ishlarini yo’qotishlari mumkin, ammo bu narsa dunyodagi faoliyatlarni samarali tashkil qilish imkonini beradi. Biz bu innovatsion texnologiyalar yordamida qanday o’zgarishlar bo’lishini aytma olmasligimiz mumkin, ammo bu o’zgarishlar yangi imkoniyat va tajribalarni taqdim qiladi.

## SAN'AT TARIXI

## QORAQALPOQ NOMODDIY MADANIY MEROSLARI – DUNYO NIGOHIDA

*Pirnazarov Saubet Maxsetbayevich**Qoraqalpoq davlat universiteti  
San'atshunoslik kafedrasi assistenti,  
O'zbekiston, Nukus**Mamutov Paraxat Allambergen o'g'li**O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali direktorining 1-o'rinbosari,  
O'zbekiston, Nukus*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qoraqalpoq nomoddiy madaniy meroslari haqida soʻz yuritilgan. Qoraqalpoq xalqining nomoddiy madaniy merosi shu qadar noyob va oʻziga xos tarixga ega. Turmush taqozosiga muvofiq dunyoga kelib, asrlar davomida shakllanib, sayqallanib, noyob hunar sifatida qadrlanib kelgan kulolchilik ham qadim tarixga ega.

## АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет о нематериальном культурном наследии Каракалпакстана. Нематериальное культурное наследие каракалпакского народа имеет такую уникальную и неповторимую историю. Гончарное дело, рожденное в соответствии с требованиями жизни, веками формировавшееся, отшлифованное и ценное как уникальное ремесло, имеет древнюю историю.

## ABSTRACT

This article deals with the intangible cultural heritage of Karakalpakstan. The intangible cultural heritage of the Karakalpak people has such a unique and unique history. Pottery, which was born in accordance with the requirements of life and has been formed, polished and valued for centuries as a unique craft, also has an ancient history.

**Kalt soʻzlar:** taraqqiyot, xalqaro, xalqlar doʻstligi, tarix, madaniyat, sanʼat, urf-odat, anʼana.

**Ключевые слова:** развитие, интернационал, дружба народов, история, культура, искусство, обычаи, традиции.

**Keywords:** development, international, friendship of peoples, history, culture, art, customs, traditions.

Qoraqalpoq xalqining xalq bayramlari haqida gapirganimizda eng avvalo, yuksak taraqqiy etgan folklorini – xalq ogʻzaki ijodi va xalq musiqasini esga olish lozim. Shuni alohida taʼkidlash joizki, hozirgi kunda qoraqalpoq ijodkorlari tomonidan toʻplab, nashr etilgan qoraqalpoq xalq ogʻzaki ijodi namunalarining yuzinchi tomi oʻquvchilar hukmiga havola etilganiga bir necha yil boʻldi.

Dostonlar, baxshilar tomonidan oʻziga xos uslubda kuylanib kelinayotgan, qoʻshiqlar, termalar, ertaklar va turli marosimlarga xos yigit-qizlarning aytishuvlari munosib joy olgan toʻplanning qaysi birini oʻqib koʻrsangiz ham qoraqalpoq xalqining yuksak aql-zakovatiga, tafakkur olamining kengligiga soʻzga chechan, tili boyligiga amin boʻlasiz. Xalq musiqalari ham ohanglari betakrorligi, koʻngilga yaqinligi bilan diqqatga sazovordir.

Qoraqalpoq xalqining nomoddiy madaniy merosi shu qadar noyob va oʻziga xos tarixga ega. Turmush taqozosiga muvofiq dunyoga kelib, asrlar davomida shakllanib, sayqallanib, noyob hunar sifatida qadrlanib kelgan kulolchilik ham qadim tarixga ega. Hatto kulolchilik, gilamdoʻzlik, yogʻoch oʻymakorligi shu qadar rivojlanganki, qoraqalpoq zaminidagi eng qadimiy shaharlar (Xoʻjayli, Toʻrtkoʻl, Shobboz, Chimboy) da bu hunar egalari maʼlum bir hududda yashashgan. Ular yashagan hudud koʻcha ham shu hunarmandlar nomi

bilan kulolchilar, gilamdoʻzlar yo naqqoshlar koʻchasi deb atalgan.

Shuningdek, qadimiy xalq gilamdoʻzlik anʼanalari koʻp avlodlarning ixtirochilik urinishlari natijasida rivojlanib, nihoyatda uzoq va keng ildizlarga ega. Qishloq joylarida asosan ayollar tomonidan uyda toʻqilgan gilamlar oddiy, lekin mukammal texnikada ishlab chiqilganligini anglatadi, shu tariqa ranglar, shakllar, nozik naqsh kombinatsiyalariga ega.

Istiqol yillarida yurtimizda milliy hunarmandchilik taraqqiyotiga qaratilayotgan eʼtibor tufayli yogʻoch oʻymakorligi sanʼati ham jadal rivojlanmoqda. Ustahunarmandlar tomonidan yuksak did va mahorat bilan tayyorlanayotgan bir-biridan bejirim va betakror mahsulotlar nainki yurtimiz, balki xorij davlatlarida ham yuqori baholanayapti.

Yogʻoch oʻymakorligining shuhrati hech qachon susaymagan. Oʻsimliklarga oid naqshlar orqali har qanday yuzani bezash anʼanaviy yogʻoch oʻymakorlik sanʼatining eng mashhur turidir. Oʻymakorlikda koʻproq chinor, tut, yongʻoq, qayragʻoch, olcha yoki oʻrikdan foydalanilar edi.

Istiqol yillari yurtimizda xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy sanʼati yanada rivoj topdi. Avloddan avlodga, ustadan shogirdga oʻtib kelayotgan milliy hunarmandchiligimizning baʼzi unutilgan turlari qayta tiklanib bormoqda.

Ayni paytda Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan uch yuzdan ziyod hunarmandning 25 foizini yoshlar, 50 foizini ayollar tashkil etadi. Ular yurtimizda va xalqaro miqyosda tashkil etilayotgan turli tanlov va festivallarda faol qatnashib, milliy madaniyatimizni keng targ'ib etishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Qoraqalpoq xalqining madaniyati va urf-odatlari bugungi avlod vakillari tomonidan qadrlanib, rivojlantirilib kelinayotgani bejiz emas.

Buyuk ikki daryo oralig'idagi Markaziy Osiyoning Egipeti atangan Qoraqalpog'iston eri jahon madaniyatining qadimiy markazlaridan biri hisoblanadi. Bu o'lkada bundan ikki yarim ming yil ilgari ilm, fan, madaniyat markazlariga aylangan qal'alarga asos solinadi. Ulardan Bazar qal'a, Mizdakhan, Tuproq qal'a, Aybiyuir qal'a, Yonbosh qal'a, Aqshahon qal'a, Daukesken qal'a, Oyoq qal'a singari bir nechta unlagan qal'alar o'zlarining askariy qo'rg'onlar, saroylar, ibodathonalar va ulastdan topilgan ajoyib haykallar, rangli buyoqlar bilan yasalgan ijodiy asarlar qolaversa arxivlik daraklari bilan jahon madaniyatining oltin qo'ridan joy egallagan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining hurmatli akademigi, professor S.P.Tolstov akademik Y.G.G'ulomov bilan birgalikda Janubiy Orol bo'yi arxeologik yodgirliklarni birinchi bo'lib ochdi, ularni faqat takidlab qo'ymasdan shu yodgirliklar va ularning merosxorlari Qoraqalpoqlar, umuman Xorazmliklarning qadimgi va o'rta asrlardagi tarixi haqidagi Angliya, Frantsiya, Italiya va Hindiston davlatlarining universitetlarida 1956-1958-yillari ma'ruzalar o'qib, xalqimizni dunyoga tanitdi.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. Q.Ayimbetov. «Qaraqalpaq folklori».N.-1977, 30 bet.
2. Q.Ayimbetov «Qaraqalpaq folklori».N.-1977.
3. Qarlibayev M. Medrese v Karakalpakii XIX-nachalo XX vekov.N.2002. str.44.
4. Qayirbayev J. Ysh ədəbiyat xizmetindəgi alim.N.,1999.
5. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 18.
6. Qudiyarov A.R. Kultura gorodov Karakalpaki (XVIII-nachalo XX vv). Materiali II-nauchno-teoreticheskoy konferensi studentov, magistrantov, molodix uchenix, prepodavateley.

Odamzot tarixi bir necha yuz ming yillarni o'z ichiga oladi. Qoraqalpog'iston yerida shu davrlarning deyarli barcha bosqichlariga tegishli yodgorliklar uchrashadi. Usturda ochilgan Esen, Shaqpaqli va Qoraquduq yodgorliklari ulkamixda odamlarning bundan bir yuz oltmish ming yildan oshiq vaqtdan buyon yashaganidan darak beradi. Temir davrid ulkamizning chegaralarining, qal'alarning, ibodatxonalarining va saroylarning qurilishlari boshlanadi. Janubiy Orol buyi tarixida birinchi markalashgan Xorazm davlatiga asos solingan. Qadimgi davrlardan Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan o'rta asrlarda karvon saroylar, minoralar va bazorlar quriladi.

Mustaqillik yillarida boy tarixiy va madaniy meroslarimizga degan munosabat butunlay o'zgarib, asosiy egasi bo'lgan xalqqa qaytarilib berildi. Natijada xalqimizning boy madaniy meroslari bugungi kuni o'z tarixini terangrak bilishga, o'zligini va milliyligini tanishga xizmat etayabdi.

Madaniy meroslar xalqning rivojlanish yo'lining belgisi bosqichlarining oynasi bo'lishi bilan kelajak avlodning ruuxiy tarafdan o'sishiga kuchli ta'sirini yasaydi. O'zi tug'ilib o'skan yerin qadrlay biladigan yoshlarni tarbiyalashda madaniy meroslarning ahamiyati katta. Qo'yqirilgan qal'a Markaziy Osiyodagi eng qadimiy mavzoley-xram va observatoriya, Tuproq qal'ada Gretsiya va Rim saroylari va ularning saroylaridan, haykallaridan, freskalaridan qolishmaydigan etib bezalgan. Buyuk Xitoy devoridan taxminan yuz yil oldin solingan Daukesken qarshisida, ertaklardagi yer osti saroylariga o'xshatadigan Nazlimxan suluda bo'lgan va ularning tarixi bilan yaqindan tanishgan yoshlarning har birida maqtanish xissini o'y'otadi.

## ТАСВИРИЙ САНЪАТДА КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ СИФАТИДА СТЕАМ ТАЪЛИМИНИ ТАТБИҚ ЭТИШ

*Султанов Хайтбой Эралиевич*

*Чирчиқ давлат педагогика институти  
“Тасвирий санъат” кафедраси доценти,  
Ўзбекистон, Чирчиқ*

*Бердиев Достон Абдувоитович*

*Чирчиқ давлат педагогика институти  
“Тасвирий санъат ва амалий безак”  
йўналиши 1-курс магистранти,  
Ўзбекистон, Чирчиқ*

Бугунги кунда меҳнат бозори хусусияти жуда тез ўзгариб бориши билан таълим муаммолари янада муҳим аҳамият касб этиб, тоборо долзарб бўлиб бормоқда. Замонавий жамиятда инсоннинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий фаоллиги ошмоқда, табиийки, бундай вазиятда жараён иштирокчиларининг касбий тайёргарлиги ва малакасига юқори талаблар қўйилади. Рўй бераётган барча жараёнлар таълимга фаол таъсир кўрсатади ва мамлакатнинг тарихий ривожланишининг янги шароитида муаммоларнинг самарали ҳал қилиниши, келажакда мамлакат тақдирини ҳал қиладиган ёш авлод таълим-тарбияси жуда муҳим масала эканлиги рўй-рост кўриниб қолди. Меҳнат бозорида рақобатбардош кадрларга бўлган талаблар ўзгарувчанлиги шароитида таълим тизимини янгилаш объектив заруратга айланиб бормоқда.

Жаҳонда педагогик таълим тизимининг рақобатбардошлиги даражасини ошириш ва жаҳон стандартлари даражасига кўтариш замонавий шахснинг ҳис-туйғулари, диди, тафаккури, ахлоқий ва ҳаётий кўникмаларини тарбиялаш ҳозирги глобаллашув шароити учун муҳим аҳамият касб этади. Бундай шароитда тасвирий санъат таълими имкониятларидан фойдаланмай туриб мақсадга эришиш, ҳаётда жамият ва инсон тақдирини тикилган долзарб ғояларни амалга ошириш асло мумкин эмас. Тасвирий санъат воқеликнинг бадиий инъикоси бўлиб, инсон камолотида, жамият ҳаётида улкан аҳамиятга эга. Шунинг учун бугунги инновациялар асрида замонавий бешта соҳани ягона таълим тизимига интеграциялашга асосланган STEAM тизими АҚШ ва Европада асосий таълим тенденциялардан бири сифатида ривожланмоқда ва кўплаб мутахассислар буни келажак таълими деб эътироф этишмоқда. Бу эса ўз навбатида инновацион технологиялар асосида узлуксиз таълим тизимини ўзаро интеграциялашни талаб этади.

Шундан келиб чиққан ҳолда фанларни интеграциялаш орқали иқтисодий ривожлантиришга қаратилган STEM атамаси пайдо бўлди. STEAM ва STEM ўртасидаги фарқ фақат битта А- Арт (санъат) ҳарфида, лекин ёндашувдаги фарқ жуда катта! Агар ушбу қисқартмани ёйсақ, қуйидагиларни оламиз: STEAM - бу ижодкорлик санъати машҳур STEM қисқартма иборанинг ривожланган кўриниши. – S – science ёки фан, T –

technology яъни технология, E – engineering, инглиз тилида муҳандислик деган маънони англатади. A – art, яъни, STEAM қисқартма иборанинг янги компоненти сифатида - санъат, яъни, мутлақо бошқа йўналишлар - рангтасвир, архитектура, ҳайкалтарошлик, мусиқа ва шеърят деб тушунилади ва M – math, фанларнинг маликаси - математика. Инглиз тилида бу шундай бўлади: табиий фанлар, технология, муҳандислик, санъат ва математика. Замонавий дунё тараққиётида ушбу йўналишлар жуда машҳур бўлиб, унга бўлган эътибор ошиб кетди. Шунинг учун бугунги кунда STEAM тизими АҚШ ва Европада оммалашган асосий тенденциялардан бири сифатида ривожланмоқда ва кўплаб мутахассислар буни келажак таълими деб эътироф этишмоқда.

Лойиҳалаш ишларида фанлараро боғлиқлик ва амалий ёндашув ёрдамида ўқитиш ғоясига асосланган кластер ёндашуви татбиқ этилиши билан фанлар ўртасида интеграция жараёни ўрнатилади ҳамда санъатнинг қўшилиши лойиҳа иштирокчилари имкониятини кенгайтиради. Бу ерда кучли техник ёки математик қобилиятга эга бўлмаган талабалар гуруҳга эстетик жиҳатдан мукамал лойиҳани амалга оширишда ёрдам бериши мумкин.

Таълимга бундай ёндашув учун аввало илмий ва ижодий муҳит яратилиши зарур. Талабаларнинг фаол иштирокини таъминламасдан туриб, фақат ўқитувчиларнинг сайёҳи ҳаракати билан жамоавий тадқиқот ишларини амалга оширишнинг иложи йўқ. Чунки ижодкорлик жараёни ҳар доим эркинлик, фидойилик ва янги ғояларга ташналик орқалигина амалга оширилади. Бу жараённи ташкил этишда:

- биринчи навбатда ижодкорлик ва инновацион янгиликка мойиллиги бор ёшларни жараёнга жалб этиш, уларни қизиқтирадиган аниқ мақсадларнинг қўйилиши;
- илмий-тадқиқот ишлари учун шарт-шароитларни яратиш;
- турли йўналишларда ижод қиладиган иштирокчилар ўртасидаги умумий мақсад ва ўзаро ҳурматга асосланган самимий муносабат;
- ўз имкониятлари ва илмий-ижодий ишининг натижадорлигига ишонч уйғотиш муҳим аҳамиятга эга.

Кластер ёндашуви орқали тасвирий санъат таълимида талаба-ёшлардаги ижодкорлик,

яратувчанлик кўникмаларини тарбиялаш механизмларини ишлаб чиқиш муаммоларини чуқур тадқиқ қилинишини тақозо этади.

Мана шундай кластер ёндашуви асосида Чирчиқ давлат педагогика институти “Тасвирий санъат” кафедрасида ташкил этилган илмий ва ижодий тўғарақлар фаолияти орқали STEAM таълими йўлга қўйилганлигини кузатиш мумкин. Кафедрада “Тасвирий ва амалий санъат ҳамда дизайн илмий-амалий тадқиқот лабораторияси” айнан мана шу мақсадда ташкил этилган. Бу лабораториянинг асосий мақсади:

- Тасвирий ва амалий санъат ҳамда дизайн соҳаларида замонавий тадқиқот усулларини ишлаб чиқиш ва долзарб педагогик муаммолар бўйича олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишларини, илмий-услубий ва тажриба-синов ишларини мувофиқлаштириш;

- илмий-тадқиқот ва инновацион фаолиятни ривожлантириш тизимини шакллантириш, илмий фаолият билан шуғулланиб келаётган иқтидорли ёшларни қўллаб-қувватлаш, илм-фанга кенг жалб қилиш, соҳа бўйича илмий мактаб яратиш, кафедранинг илмий салоҳиятини ошириш;

- кафедрада амалий ва инновацион илмий-ижодий тадқиқотларни ривожлантириш, янги илмий мактаб яратиш, кадрлар салоҳиятини мустаҳкамлаш;

- кафедрада олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишлари бўйича тажриба-синов ишларини ўтказиш, фан, таълим ва тарбия ҳамда ижтимоий-сиёсий соҳани модернизация қилиш учун тадқиқот натижаларини амалиётга жорий этилишига кўмаклашиш;

- таълим олиш билан биргаликда талабаларга тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиш бўйича амалий кўникмаларга эга бўлган кадрларни тайёрлаш, ёшларда фаол тадбиркорлик фаолияти уқуви ва кўникмаларини шакллантириш шарт-шароит яратишдан иборат.

Хулоса ўрнида шуни шуни таъкидлашни истардикки, тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида STEAM таълимини татбиқ этиш инсонлардаги ўқитиш ва таълимга бўлган замонавий қарашлар ҳамда талабалардаги билим олишга бўлган муносабатларини ўзгартиради. Бундай ёндашув орқали амалий қобилиятлар юзага чиқади, талабалар иродаси, ижодкорлиги, турли вазиятларга мослашувчанлигини ривожлантирилади ва ҳамкорликда ижодий вазифаларни ҳал этишни ўрганади.

Бундан ташқари кафедрада талабаларнинг илмий ва ижодий фаолият юритишлари учун қулай бўлган муҳит яратилади. Эркинлик, фидойилик ва янги ғояларга ташна бўлган талабалар ҳар томонлама фаоллаштирилади, жамоавий тадқиқот ишлари олиб бориш имконияти туғилади.

- аниқ мақсадлар қўйиш орқали ижодкорлик ва инновацион янгилликка мойиллиги бор ёшларнинг ижодий фаолияти рағбатлантирилади;

- илмий-тадқиқот ишлари учун шарт-шароитларни яратилади;

- ҳамкорликдаги изланишлар орқали турли йўналишларда ижод қиладиган иштирокчилар ўртасидаги умумий мақсад ва ўзаро ҳурматга асосланган самимий муносабат шаклланади;

- ўз имкониятлари ва илмий-ижодий ишининг натижадорлигига ишонч ҳосил бўлади.

**Тавсиялар:** Тадқиқотнинг хулосаларига таянган ҳолда қуйидаги амалий таклифларни келтириш мумкин:

- тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида STEAM таълимини татбиқ этиш тажрибаларидан таълимнинг барча соҳаларида фойдаланиш мумкин;

- бу мунозара кейинги тадқиқотларнинг бошланиш нуқтаси бўлиши мумкин деб ўйлаймиз ва ушбу мақолада кўтарилган муаммолар ечимини келажакдаги тадқиқотларда давом эттириш мақсадга мувофиқ бўлади.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида юридик таълим ва фанни тубдан такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5987-сон Фармони: Тошкент ш., 2020 йил 29 апрель.
2. KE Sultanov Cluster Approach in Fine Art Education as a Factor for Improving the Educational System / International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding// Volume 9, Issue 2 February, 2022 Pages: 585-593 2022.
3. Doston Abduvoitovich Berdiyev Maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitishda kelajak ta'limi steam interaktiv ta'limini rivojlantirish / "Science and Education" Scientific Journal/ ISSN 2181-0842 February 2022// Volume 3 Issue 2 Pages: 687-690.
4. Laylo Mirsoatova Use of innovative methods in the development of students' creative abilities / Current research journal of pedagogics (ISSN –2767-3278) volume 03 issue 01Pages: 45-49.

## PEDAGOGIKA

**ЭКОЭСТЕТИК МАДАНИЯТНИ БЎЛАЖАК МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ  
МУТАХАССИСЛАРИДА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР ТАМОЙИЛЛАРИ  
ВА МУҲИМ ОМИЛЛАРИ***Ashurova Oygul**ўқитувчи, Фаргона давлат университети,  
Ўзбекистон, Фаргона***PRINCIPAL PRINCIPLES AND IMPORTANT FACTORS FOR THE DEVELOPMENT  
OF ECOESTHETIC CULTURE IN FUTURE PRESCHOOL EDUCATIONAL SPECIALISTS***Ashurova Oygul**Teacher,  
Fergana State University,  
Uzbekistan, Fergana***АННОТАЦИЯ**

Мактабгача таълим муассасаларида педагогик технологиялардан фойдаланиш орқали экоэстетик тарбияни амалга ошириш педагог-психологларнинг зиммасига юклатилади. Экоэстетик тарбия болаларнинг теварак-атрофга нисбатан кузатувчанлигини оширади, табиат воқеа-ҳодисаларининг содир бўлиш сабабларини аниқлашга қизиқишларини кучайтиради. Натижада болаларнинг гидроки, ақли, экологик онги, дунёқарши, тасавури ривож топади.

**ABSTRACT**

The implementation of eco-aesthetic education through the use of pedagogical technologies in preschool education is the responsibility of pedagogical psychologists. Eco-aesthetic education increases children's observation of the environment, increases their interest in determining the causes of natural phenomena. As a result, children's perception, intellect, ecological consciousness, worldview, imagination develop.

**Keywords:** ecology, ecoesthetic culture, nature, law, consciousness, education.

**Калит сўзлар:** экология, экоэстетик маданият, табиат, ҳуқуқ, онг, тарбия.

Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш Республикамиз мустақилликка эришгандан кейин долзарб муммолардан бирига айланди. Бу муаммо ҳукуматимизнинг сиёсати билан боғлиқ бўлганлиги туфайли Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Она ва бола» давлат дастурида пухта ишлаб чиқилган. Шунингдек, давлатимиз раҳбарининг ҳар бир асарлари, маърузаларида бу муаммо алоҳида тилга олинади. Жумладан, унинг «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида» асарида шундай дейилади: «Асрлар туташ келган Паллада бутун инсоний, мамлакатимиз аҳолиси жуда катта экологик хавфга дуч келиб қолди. Бунинг сезмаслик, қўл қовуштириб ўтириш, ўз-ўзини ўлимга маҳкум этиш билан баробардир» Сўнгги йилларда атроф-муҳитни, табиатни, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ҳақида қатор қонунлар ҳамда кўллаб меъёрий методик ҳужжатлар қабул қилинди. Бу қонунларда Республикамизнинг ҳозирги экологик-иктисодий сиёсати умуминсоний экосистемани муҳофазасини таъминлашга, инсон ҳаёти моҳиятининг барча қирраларини кафолатлашга қаратилган.

Мактабгача таълим ўқув тарбия фаолиятини ташкил қилиш восита ва усулларини, ўқув тарбия

жараёнида келиб чиқадиган муаммолар ва уни ечишни тўғри ҳал қила билиш, инновацион технология усулларидан фойдаланиш, қийинчиликларни тўғри ечимини топишга йўналтиради.

Мактабгача таълим энг муҳим асосий педагогик муносабатлар сабабларини аниқлайди, уни педагогик жараёнда ўрганади. Мактабгача таълим бўлажак тарбиячиларни мактабгача таълим муассасаларига тарбиячилик фаолиятига тайёрлайди. Мактабгача таълимнинг назарий асослари: Инсон камолотига қаратилган, халқ яратган бой тажриба, илмий тадқиқотга доир назарий ва методик манбаларга Марказий Осиё ва жаҳон мутафаккир, маърифатпарвар педагог олимларнинг асарларига суянган ҳолда комил инсонни тарбиялашнинг қонун, қоида ва тамойилларига асосланади.

Мактабгача педагогиканинг миллий асослари: Таълим - тарбия масалалари, ҳар бир миллатнинг миллий меросига, умумбашарий кадриятларига боғланган ҳолда боғча ёшидан бошлаб ўзлигини англаш, эркин фикрлаш, ғурур туйғуларини шакллантиришга қаратилади.

Ҳозирги кунда таълим жараёнида интерфаол услублар инновацион педагогик ва ахборот технологиялардан фойдаланиб, таълимнинг самарадорлигини кўтаришга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда. Замонавий технологиялар қўлланилганда педагоглар эгаллаётган билимларни ўзлари кидириб топишларига, мустақил ўрганиб, таҳлил қилишларига, ҳатто хулосаларни ҳам ўзлари келтириб чиқаришларига қаратилган. Педагог бу жараёнда шахс ва жамоанинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади. Шу билан бир қаторда бошқарувчилик, йўналтирувчи вазифасини бажаради. Бундай ўқув жараёнида педагог асосий фигурага айланади.

Қандай қилиб самарали ва натижали ўқитиш мумкин? деган саволига жавоб берадилар. Бу эса олим ва амалиётчиларни ўқув жараёнини технологиялаштиришга, яъни «Ўқитишни ишлаб чиқаришга оид аниқ қафолатланган натижа берадиган технологик жараёнга айлантиришга уриниб кўриш мумкин» деган фикрга олиб келади. Бундай фикрнинг туғилиши педагогика фанида янги педагогик технология йўналишини юзага келтиради. Бугунги кунда таълим муассаларининг ўқув-тарбиявий жараёнда педагогик технологиялардан фойдаланишига алоҳида эътибор берилётганлигининг асосий сабаби куйидагилардир:

Биринчидан: педагогик технологияларда шахсни ривожлантирувчи таълимни амалга ошириш имкониятининг кенглигида. «Таълим тўрисида»ги Қонун ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида ривожлантирувчи таълимни амалга ошириш масаласига алоҳида эътибор қаратилган.

Иккинчидан: педагогик технологиялар ўқув-тарбия жараёнига тизимли фаолият ёндашувини кенг жорий этиш имкониятини беради.

Учинчидан: педагогик технология педагогни таълим-тарбия жараёнининг мақсадларидан бошлаб таъхис тизимини тузиш ва бу жараён кечишини назорат қилишга бўлган технологик занжирни олдиндан лойиҳалаштириб олишга ундайди.

Тўртинчидан: педагогик технология янги воситалар ва ахборот усулларини қўллашга асосланганлиги сабабли, уларнинг қўлланилиши «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» талабларини амалга оширишни таъминлайди.

Ўқув-тарбия жараёнида педагогик жараённи тўри ташкил этилиши педагогнинг бу жараёнда

асосий ташкилотчи ёки маслаҳатчи сифатида фаолият юритишига олиб келади. Педагогик технология асосида ўтказилган машғулотлар ёшларнинг муҳим ҳаётий ютуқ ва муаммоларга ўз муносабатларини билдиришларига интилишларини – ошириб, уларни фикрлашга, ўз нуқтаи назарларини асослашга имконият яратади.

Қадимги аждодларимиз табиатни жиддий кузатар экан, ундан ўзи учун фойдали кўп нарсаларни кашф этишга муваффақ бўлган. Шу кузатишлар замирида инсон табиатдан нусха кўчириб, жуда кўп бундөкорлик ишларини амалга оширган. Масалан, ари уясига қараб, кўп қаватли уйлар кура бошлаган. Кушнинг парвози самолётнинг яратилишига туртки бўлган. Қуёшга қараб лампочкалар кашф этилган ва ҳақозо. Буларнинг барчаси кузатишлар-табатни билишнинг, тушуниш ва ҳис этишнинг энг асосий воситаси эканлиги намоён этади.

Шундай экан, ҳозирги ёшлар ҳам табиат билан яқиндан ошна тутинсалар, уни жиддий кузатиб, ўрганиб борсалар хали кўй янги нарсаларни кашф қилишга мушарраф бўлишлари мумкин. Чунки табиат азалдан инсонни тўйдириб, едириб, ичириб, кийинтириб келаётган она каби ғамхўр ва меҳрибондир. У ҳалигача инсонлардан ўз саховатани дариг тутмай келаёттир. Бунга жавобан инсония ҳам она каби меҳрибон табиатни ҳар тамонлама асраб-авайлаши, унинг бойликларидан оқилона ва режали фойдаланиши жуда муҳимдир.

Мактабгача ёшдаги болаларда экоэстетик тарбиянинг асосий мақсади – уларга табиатга нисбатан кучли муҳаббат уйғотишдан иборат. Бу мақсад умумий саналса-да, худди шу умумий мақсаддан келиб чиқувчи хусусий мақсадлар ҳам мавжуд: Экологик тарбия беришнинг хусусий мақсади эса ўрганилаётган мавзу талаби билан боғлиқ. Бола табиат бойлигимиз эканлигини, инсон ўз ҳаёти учун зарур ҳамма нарсани ундан олишини, табиат инсонни боқувчи, унинг туйғулари, хулқ-атвориға таъсир кўрсатувчи восита эканлигини тушуниб етишлари лозим.

#### Хулоса.

Экологик таълим-тарбия умуман таълим-тарбиянинг бошқа кўринишлари сингари муҳим воситалар орқали амалга оширилади. Ана шундан экологик онг ўстириш йўлларида бири - ҳашаротлар билан таништириш орқали экологик тарбия бериш мактабгача ёшдаги болаларда табиат, моддий борлик ҳақидаги дастлабки тасаввурларни сингдиришда хурмат қилади.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. Anvarjonovna, A.O. (2021, December). Methodological Foundations for Development of Aesthetic Culture Teacher of Preschool Education. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES (Vol. 2, pp. 254-258).
2. Anvarjonovna, A.O. (2021, December). Methodological Foundations for Development of Aesthetic Culture Teacher of Preschool Education. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES (Vol. 2, pp. 254-258).
3. Anvarjonovna, A.O. (2021). AESTHETIC CULTURE OF THE EDUCATOR. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (pp. 253-255).

## TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

*Davletov Nurlibay Aytmuratovich**Qoraqalpog'iston Respublikasi XTXQTMO**Hududiy markazi**Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası o'qituvchisi,**O'zbekiston, Nukus*РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ  
В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕTHE ROLE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL  
PROCESS

## ANNOTATSIYA

Maqolada ta'lim berish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni, dars o'tish jarayonida ovoqli slaydlar yoki videodarslardan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan.

## АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о роли современных информационных технологий в обучении, использовании аудиослайдов или видеоуроков на уроках.

## ABSTRACT

The article provides information about the role of modern information technologies in teaching, the use of audio slides or video lessons in the classroom.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy axborot texnologiyalari, ta'lim jarayoni, o'qituvchi, internet, bilim

**Ключевые слова:** современные информационные технологии, образовательный процесс, учитель, интернет, знания.

**Keywords:** modern information technologies, educational process, teacher, Internet, knowledge.

Ta'lim jarayonida axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zamon talabidir. Shuning uchun ham Ayni paytda o'quvchilarning mustaqil bilim olishi va amaliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. O'quv jarayonining asosiy maqsadi nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini orttirishdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta'lim samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llangan mashg'ulotlar ta'lim oluvchilar egallagan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, ta'lim qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga yo'naltirilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida ta'lim oluvchi asosiy figuraga aylanadi. Bugungi kunda XXI asr axborot texnologiyalari asridir. Jamiyatning turli sohalarida zamonaviy texnologiyalar ta'siri yaqqol seziladi. Har bir so hada zamonaviy texnologiyalar insoniyat mehnatini engillashtirish uchun xizmat qilib kelmoqda. Masalan, buxgalteriya, muhandislik, tilshunoslik va boshqa yana ko'plab so halarda

zamonaviy texnologiyalardan keng ravishda foydalanilmoqda. Pedagog, o'qituvchilar faoliyatida ham zamonaviy texnologiyalar katta o'rin egallaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalari o'qituvchi faoliyatini quyidagi jarayonlarni engillashtirishga yordam beradi:

- Turli hil hujjat ishlarini yuritishda (rejalashtirish, mavzu konspekti, hisobot va h.k.);
  - O'qituvchi komp'yuter texnologiyasi yordamida turli didaktik vositalar yaratish imkoniyatiga ega;
  - Mul'timediya vositalari, elektron doska, proektor va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
  - O'qituvchi dars o'tishga ijodiy yondashilib, o'quvchi mustaqil fikrlashga o'rganadi;
  - O'zi mustaqil elektron testlar va boshqa nazorat ishlarini tayyorlashi mumkin;
  - O'qituvchi Internet va web – texnologiyalardan foydalanishni mustaqil o'rganishi mumkin.
- Bugungi kunda o'qituvchi o'z faoliyati davomida zamonaviy komp'yuter texnologiyalaridan quyidagi jarayonlarda foydalanishi maqsadga muvofiq:
- Yangi mavzuni tushuntirishda:
- prezentatsiya, Internet resurslar;
- Ko'nikma va malakalarni tekshirish jarayonida:
- O'rgatuvchi dasturlar, mavzuga mos komp'yuter o'yinlari;
  - komp'yuter trenajyorlari;

O'quvchilar bilimni bilimni tekshirish jarayoni:

- komp'yuter testlari (ochiq, yopiq);
- O'quvchilarning mustaqil izlanish vaqti :
- ensiklopediyalar;
- lug'atlar; ma'lumotnomalar; elektron kitoblar;

O'quvchilarni ilmiy tadqiqot ishlarini tashkillashtirishda:

- virtual laboratoriyalar; Internet.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rib turibdiki o'qituvchi o'z ish jarayonini to'g'ri tashkillashtirsa, ta'lim oluvchilarning dars jarayonini o'zlashtirishi yanada yaxshilanadi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan bosqichlar, dars samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Lekin bugungi kunda o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga turlicha yondashilmoqda. Bu yondashuvlarga ko'ra o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yaxshi natija beradi, ikkinchi tomondan esa aniq fanlarni o'tishda doskadan foydalanish jarayonida ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi kabi fikrlar mavjud.

Gumanitar sohada zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini tashkil qilish asosiy o'rinda. Sababi, dastlab zamonaviy axborot texnologiyalaridan faqat chet tillarini o'qitish jarayonida qo'llanilgan bo'lsa, hozirda boshqa fanlar ham bu texnologiyalar yordamida tashkillashtirilmoqda. Ya'ni, darslarni slaydlar yordamida o'tish, dars jarayonini tushunarli bo'lishini va yaxshi o'zlashtirilishiga olib kelmoqda. Ta'lim oluvchilar ta'lim olish jarayonida nafaqat mavzuga doir ma'ruzani tinlaydilar, balki yozadilar shu mavzuga oid rasmlarni ko'rib, shu mavzu haqida tassavur hosil qiladilar.

Aniq fanlarga kelsak, bu fanlarni o'zlashtirish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan elektron doska ancha qo'l keladi. Bu doskada o'qituvchi bemalol misol va masalalarni yozib ko'rsatishi, formulalarni keltirib chiqarish usullari bilan tanishtirishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars o'tish uchun biz birinchi navbatda, o'qituvchilarni komp'yuterdan foydalanish madaniyatiga o'rgatishimiz lozim. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib ta'lim berishning yana bir muhim jihati shundaki, ta'lim oluvchilarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ularni ishlatish madaniyati shakllanadi. Bundan tashqari ta'lim oluvchining darsga qiziqishi ancha ortadi, u nafaqat eshitadi, balki o'zi o'rganayotgan soha bo'yicha ko'rgazmali ravishda bilim oladi. Yana bir muhim jihati hatni e'tiborga olish kerak: zamonaviy axborot texnologiyalari o'qituvchi faolligini engillashtiradi, lekin bu texnologiyalardan to'g'ri foydalana bilish ham muhimdir.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomov S.S. va bosh. «Axborot tizimlari va texnologiyalari». Toshkent, 2000.
2. S.S. G'ulomov, B.A. Begalov «Informatika va axborot texnologiyalari».T. 2010.

Darslarni effektivligini oshirishda mul'timediya vositalaridan foydalanish ham katta imkoniyatlar beradi. Masalan, dars o'tish jarayonida ovoqli slaydlar yoki videodarslardan foydalanish mumkin. Bundan tashqari dars jarayonida turli audio kitoblar yoki komp'yuter trenajyorlaridan foydalanish ta'lim oluvchini dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini bir necha barobar ortiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'lim jarayonini tashkil qilishda nafaqat o'qitish balki mustaqil ish yoki nazorat ishlarini o'tkazishda ham foydalanish mumkin.

Mustaqil ishlarni tashkil qilish vaqtida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchiga turli slaydlar yoki kichik hajmga ega videoroliklarni yaratishni vazifa qilib berishi mumkin. Bunda ta'lim oluvchi vazifaga mustaqil yondashadi va fikrlashga o'rganadi. Ba'zi bir gumanitar fanlarni o'qitishda bu texnologiya yaxshi natija berishi barchaga ma'lum.

Nazorat ishlarini o'tkazishda turli xil elektron testlarni tashkil qilish mumkin. Buning uchun ta'lim beruvchidan hech qanday ortiqcha harakat kerak emas.

Sababi, nazorat ishlarini o'tkazish uchun tayyor test dasturlari mavjud va bu dasturlarni maxsus o'rganish shart emas. Bu dasturlarni ishlatish sodda bo'lib, ho'lovchilar bu dasturlarni o'zlarini o'rganish imkoniga ega bo'ladilar. Shuningdek bu dasturlarni ikki xil rejimda ishlatish mumkin, ya'ni o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi.

Birinchi rejimda ta'lim oluvchi mustaqil ravishda nazorat ishi uchun tayyorlansa, ikkinchi rejimda ta'lim oluvchini ba'holash imkoni mavjud. Bunday nazorat ishlarining muhim jihati shundaki, ta'lim oluvchiga ob'ektiv ba'ho qo'yiladi, ya'ni ba'holash jarayonida ta'lim beruvchining o'rni sezilmaydi va ta'lim oluvchi o'zining ba'hosini sinov tugashi bilan bilish imkoniga ega bo'ladi. Shuni unutmaslik lozimki, texnologiyalarni qo'llashni ham foydali va zararli tomonlari mavjud. Shu sababli, ta'lim berish jarayonini to'liq zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'tish ham yaramaydi. Ta'lim oluvchilarning texnologiyalarga qaram bo'lib qolishlarini oldini olish muhim, ta'lim jarayonida o'zaro muloqat savol javob, takrorlashga ham e'tibor berish kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'lim jarayonini tashkil qilishda pedagogik vositalarni ham qo'llash ham kerak. Ta'lim berish jarayonini bu ikkita texnologiya uyg'unligida olib borish ta'lim berish jarayonini yanada qiziqarli, effektiv va muhimi esda qoladigan bo'lishini ta'minlaydi.

## O'ZBEKISTAN KOMPOZITORLARI ASARLARINI O'RGANISH

Tayrova Ziyada Qidirbaevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
I-kurs magistranti,  
O'zbekiston, Nukus

## ИЗУЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ УЗБЕКСКИХ КОМПОЗИТОРОВ

## STUDY OF WORKS OF UZBEK COMPOSERS

## ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbek musiqasi tarixi fanining asosiy maqsadi - musiqa sohasidagi asosiy bilimlarni berish, o'zbek musiqasi haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish, xalq folklor va mumtoz musiqa haqida tushunchaga ega bolish, bastakorlik va professional kompozitorlik ijodi bilan tanishish, musiqaning barcha yonalishlaridagi janrlarining paydo bolishi haqida ma'lumotlar berilgan.

## АННОТАЦИЯ

Основная цель изучения истории узбекской музыки - дать базовые знания в области музыки, иметь необходимые знания об узбекской музыке, получить представление о фольклоре и классической музыке, познакомиться с произведением композиторов и профессиональных композиторов информация о появлении жанров во всех областях музыки.

## ABSTRACT

The main goal of studying the history of Uzbek music is to give basic knowledge in the field of music, to have the necessary knowledge about Uzbek music, to get an idea of folklore and classical music, to get acquainted with the work of composers and professional composers, information about the emergence of genres in all areas of music.

**Kalit so'zlar:** bastakor, kompozitor, folklor, mumtoz musiqa, an'ana, sozanda, xonanda, ijodkorlik, ijrochilik.

**Ключевые слова:** композитор, композитор, фольклор, классическая музыка, традиция, музыкант, певец, творчество, исполнительство.

**Keywords:** composer, composer, folklore, classical music, tradition, musician, singer, creativity, performance.

O'zbek musiqasi tarixi fanining asosiy maqsadi - musiqa sohasidagi oliy ta'lim muassasalari talabalariga ushbu fandan asosiy bilimlarni berish, o'zbek musiqasi haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish, xalq folklor va mumtoz musiqa haqida tushunchaga ega bolish, bastakorlik va professional kompozitorlik ijodi bilan tanishish, musiqaning barcha yonalishlaridagi janrlarining paydo bolishi, rivojlanish etaplari haqida atroflicha ma'lumot berish, ularni o'rganish va o'zlashtirishdan iborat. Dunyodagi har bir xalqning borligidan darak beruvchi omil - bu tilidir. Uning buyukligini ifodalovchi mezon - bu ma'naviyatidir. Demak, ma'naviyatning asosiy tarmoqlaridan biri musiqa ekanligi barchaga ayondir. Musiqa dunyosi juda keng va barcha sohalarga teng daxldor ekanligi bilan boshqa sohalardan farq qiladi. Musiqa dunyosi insoniyatning hayoti, yashash tarzi, faoliyati, mehnati, qadriyati, an'anasini inikos etuvchi vosita sifatida ahamiyatlidir. Shu bois musiqa o'zining badiiy va estetik imkoniyatlariga egaligi bilan xarakterlanadi. Dunyodagi har bir xalq o'zining qadimiy tarixiga ega bo'lgan musiqiy an'alariga egadir. Shular qatorida o'zbek musiqasi ham juda qadimiy va o'ziga xos an'alariga egadir. O'zbek musiqasi azaldan ikki ulkan yo'nalishda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan.

Birinchi yo'nalish, bu xalq hayotiy voqe'liklari bilan bog'liq bo'lgan folklor musiqasidir. Insoniyatning kundalik hayoti, mehnati va faoliyatini in'ikos etuvchi musiqadir. Folklor musiqasining asosiy

mezonlari marosimlar va voqe'liklar bilan bog'liq bolib, to'rtta yo'nalishdan iboratdir. Bular:

1. Bolalar musiqasi.
2. Mehnat qo'shiqlari.
3. Marosim qo'shiqlari.
4. Diniy, afsuniy qo'shiqlar.

Amaliyotda har bir yo'nalishga xos va voqe'lik bilan bog'liq bo'lgan janrlar vujudga kelganki, ular asrlar davomida xalqlar milliy an'alarida yuzaga kelgan. Bular - alla, yalla, lapar, terma, qo'shiq, aytishuv kabi janrlardir. Xalq folklor musiqasining asosiy xususiyatlaridan biri: folklor musiqasini xalq yaratadi, xalq tomonidan ijro etiladi va tinglanadi. Lekin folklor musiqasining ham bilimdon ijrochilari bolib, xalq orasida ular laparchi, yallachi kabi nomlar bilan atalib kelinadi. Folklor musiqasining ijrosida va ijodida muayyan janrlar tarkibiga asoslangan erkinlik xususiyatlari mavjuddir. Musiqiy namunalarning shakl jihatidan soddaligi, barmoq vazniga xos she'riy matnlarga asoslanishi va unchalik katta bolmagan diapazon doirasida ijro etilishi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi yo'nalish mumtoz musiqadir. Mumtoz musiqa namunalari, har tomonlama mukammallik kasb etishi bilan folklor musiqasidan farq qiladi. Mumtoz musiqa alohida yaratuvchisi, ya'ni bilimdon bastakori tomonidan ijro etiladi. Bilimli va mohir sozanda yoki xonandalar tomonidan ijro etiladi. Asosan aruz vazniga xos bolgan so'z matnlariga asoslab va muayyan shaklda yaratiladi. O'zbek xalq mumtoz musiqasi

o'zining mukammalligi va murakkabligi bilan boshqa xalqlar orasida alohida o'ringa egadir. Mumtoz musiqaning eng yirik shakli maqomlardir. Maqomlar O'zbekistonning uch vohasida mavjud bo'lib, Buxoroda "Shashmaqom", Xorazmda "Xorazm maqomlari", Farg'ona vodiysida "Farg'ona-Toshkent maqom yollari" deb yuritiladi. Bundan tashqari, maqomlar yollarida yaratilgan, shaklan va ijroviy xususiyatlari doirasi maqomlarga xos bo'lgan "Suvora"lar, Katta ashula, Surnay maqom yollari, dutor maqomlari hamda cholg'u yollari mavjuddir. Mumtoz musiqaning qonun qoidalarga egaligi, talqin uslublarining mavjudligi uning murakkabligidan dalolat beradi.

Maqomlarni ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik, bilim va albatta keng diapazonli ovoza ega bo'lish lozimdir. Maqomlar, odatda bir necha yillar davomida hamda ustoz-shogird qabilidagi ta'lim asosida o'zlashtiriladi. Maqomlarni - "sifatsiz ijro etish - deb yozadi maqomdon olim I.Rajabov - maqom yo'llari haqida noto'g'ri tasavvur qoldirishi mumkin". Bu mumtoz musiqa merosimizning asrlar osha o'z badiiy va estetik imkoniyatlari saqlab kelishining asosini bildiradi. Shu bilan birga qayd etish lozimki, "Maqom yo'llari ijrosi uchun hofizda keng diapozon, yoqimli ovoz va yuksak aytish texnikasi bo'lishi shart." O'zbek musiqasining ijodiyoti yillar davomida turli janrlar bilan boyib kelgan. XX asrga kelib, bastakorlik an'alariga xos va jahon musiqa ijodiyoti namunalari mos kompozitorlik ijodiyoti kirib keldi. Bu albatta o'zining yangidan-yangi janrlari, ularni yaratish va ijro etish qonuniyatlari bilan bog'liqdir.

Musiqa sohasining azaliy qadriyatlardan zamonaviylik mezonlariga bo'lgan jarayonlarni faqatgina ohanglarda muhrlangan betakror asarlardangina anglash mumkin. Buning esa ko'lam juda keng, ularni tasavvur ham qilish mushkul. Chunki, har bir xalqning o'z ma'naviyati, ma'rifati, estetikasi bo'lib, hayot degan jarayonda milliy hamda mahoratli omillar bilan sug'orilib kelingan. Buning negizida ikki ulkan tafakkur yo'nalishlari, ya'ni xalq ommaviy musiqasi va tafakkurning individual ijodiy munosabatlarining mahsuli o'rin olgan. O'zbekiston kompozitorlarining barcha avlodlari ham ijodiy faoliyatlarida, o'tgan yillarda musiqali sahna asarlarga va mustaqil uverturalar yaratdilar. Ularning ijodida programmali va noprogrammali, turli mavzularda, xilma-xil, mustaqil ravishda yaratilgan uverturalar ham mavjud. Kompozitorlar yaratgan uverturalarida, asosan, zamonaviy hayotni poyonsiz rang-barangligi, cheksiz xilma xilligi, tengi yo'q xalq qudratini aks etishga harakat qildilar. Shuning uchun bolsa kerak, barcha mustaqil ravishda yaratilgan uverturalarning asosiy mavzusi zamon ruhi bilan bog'liq, ya'ni hayotni, ulug'vor ishlarni, shodiyona xalq bayramlarini, yoshlarni orzu-umidlarini, jamiyatning taraqqiyoti yo'lida xizmat qilayotgan azamatlarning obrazlarini, bugungi kunning qiyofasini, tabiat go'zalligini kompozitorlar uverturalarida tarannum qildilar. Quidagi kompozitorlarning asarlari bunga yorqin misol bo'la oladi. 1949-yili kompozitor Sulaymon Yudakov (1916-1992) mustaqil ravishda yaratgan "Tantavor uvertura"si musiqa shinavandalarining orasida shov-

shuvga aylanib ketgan edi. Bu uch qismli murakkab shaklda yozilgan asar bir-birini inkor qilmagan milliy intonatsiya ruhida yozilgan ikki tema rivojlanish jarayonida, o'rta qismida o'zgarib, qarama-qarshi lirik tema paydo bo'lishi bilan birga, asarning birinchi va oxirgi qismlari birinchi taktidan to oxirgi taktga qadar ajoyib usul jumalari, sinkopalarning mavjudligi, litavra va boshqa urma cholg'ular sadolari, torli va damli cholg'ular guruhlari bilan goh birlashgan, goh ajrashgan holda tez harakatli, ko'tarinki ruhda yaratilgan original musiqa tantavor bayram shodiyonalarni mukammal ravishda aks etadi. Kompozitor 1965-yili "Festival uverturasi", 1972-yili "Yoshlar uverturasi" kabi asarlarni ham yaratdi. Mazkur uverturalarning har biri tasodifiy emas. Ular kompozitorning kasbiy professionallik mahorati va o'ziga xos uslubiy yo'nalish tufayli, umumlashgan - ramziy musiqiy obrazlar bilan, ajoyib ohangdor musiqiy asarlar yaratdi.

Kompozitor S.Yudakov operada o'zbek xalq musiqasidan iqtibos kiritmay, faqat kuy - ohangi va usul doirasi bilan cheklanadi. Ya'ni xalq qo'shiq, ashula, yalla, lapar kabi janrlarning xususiyatlaridan, mukammal ravishda foydalangan. Kuylarni obrazli tuzilmasi tiniq oddiy va ta'sirchan ohanglarni zamini asosan major yoki minor ladlar, garmonik funksiyalari sodda akkordlar bilan boyitilgan. Shular sababli opera xalqchiligi, asl hajviyligi, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va tomoshabinni juda ham qiziqtirib, Maysaraxonning aql - zakovatli ishi girdobiga olib kiradi. "Dilorom". Mazkur opera musiqa muallifi kompozitor Muxtor Ashrafiy, libretto muallifi Komil Yashin va Muzaffar Muhamedovlar.

Kompozitorlik ijodiyoti bilan birga o'zbek musiqasiga yevropa musiqiy an'alarida mavjud bo'lgan opera, balet, simfoniya, kamer musiqa, cholg'u musiqa kabi bir qator janrlarda ijod etish an'anasi kirib keldi. O'tgan asr davomida bu an'ana o'zbek musiqiy hayotida o'z o'rnini topdi. O'zbek kompozitorlik maktabi shakllandi, yetuk kompozitorlar tarbiyalanib samarali ijod etdilar. Olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan musiqiy asarlar yaratdilar. Bu jarayon ham o'ziga xos shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o'taganini qayd etish lozimdir. Chunki, bu an'ana avvalo rus musiqashunos va kompozitorlari tomonidan boshlab berildi, so'ngra milliy an'analarni saqlash maqsadida, bastakorlar bilan kompozitorlarning hamkorlik davri ham o'z mevasini berdi. 1930-yillarning oxiridan o'zbek kompozitorlik ijodiyoti o'zini ko'rsata boshladi va tez orada kompozitorlarning yangi avlodi tarbiyalandi. Eng muhimi kompozitorlikning barcha janrlarida o'zbekona ohanglarga ega bo'lgan milliy ruhdagi asarlar yaratilib, jahon sahnalarida o'zini namoyon etib kelmoqda. Ushbu fan bo'yicha talabalar mukammal ravishda musiqiy san'atning tarixiy taraqqiyot jarayoni, Vatanimizning musiqiy hayoti, bastakorlar va kompozitorlarni yillar davomida. musiqiy san'atning turli janr va shakllarida yaratgan asarlari, ijrochi namoyandalar ijodiy faoliyatlarini, bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni, ijodkorlarni noyob asarlariga tahlil qilish borasidagi bilim va ko'nikmalariga ega boladilar.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.-T.: 2005.
2. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir.-T.: 1963.

## FORTEPIANO ASBOBIDA QO'L TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISH

*Xazieva Gyuzel Raisovna**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
I-kurs magistranti,  
O'zbekiston, Nukus*

## РАЗВИТИЕ РУЧНОЙ ТЕХНИКИ ИГРЫ НА ФОРТЕПИАННОМ ИНСТРУМЕНТЕ

## DEVELOPMENT OF MANUAL PIANO PLAYING TECHNIQUE

## ANNOTATSIYA

Maqolada fortepiano asbobida qo'l texnikasini rivojlantirish, fortepiano ijrochiligida 3 ta tayanch nuqtalari mavjud bo'lib, bular oyoq holati, o'rindiqa (stulda) o'tirish holati va "qo'l holati" (barmoqlar) harakati haqida ma'lumotlar berilgan.

## АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о развитии техники рук на фортепианном инструменте, 3 опорные точки в игре на фортепиано, это положение ног, положение сидя на сиденье (стуле) и движение "положение руки" (пальцы).

## ABSTRACT

The article presents information about the development of the technique of hands on a piano instrument, 3 reference points in playing the piano, these are the position of the legs, the position of sitting on a seat (chair) and the movement "position of the hand" (fingers).

**Kalit so'zlar:** Forteplano, musiqa ohangi, qol texnikasi, forteplano cholg'usi, ijro.

**Ключевые слова:** пианино, мелодия музыки, техника игры на гитаре, фортепианный инструмент, исполнение.

**Keywords:** piano, melody of music, guitar playing technique, piano instrument, performance.

Yosh avlodni har tomonlama etuk qilib tarbiyalashda, maktabda o'qitiladigan barcha fanlar qatori, nafas tarbiyasining, tarkibiy qismi bo'lgan, musiqa madaniyati darslarini ahamiyati katta. Musiqa inson his-tuyg'ularini, orzu – istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va bolaning hissiyotlariga faol ta'sir ko'rsatadi. Musiqa fani maktabda boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Musiqa jonli san'at turi sifatida davr, hayot, tabiat va inson his-tuyg'ularini, orzu – istaklarini aks ettiradi. Uni quvontiradi, o'ylantiradi va hayotdan ozuqa olishga xizmat qiladi. Musiqa – insonlarni ezgulikka, komillikka etaklovchi vositalardan biridir. Xalqimiz orasida qadim-qadimdan so'z va musiqa muqaddas sanalib kelingan. Musiqa ohangida inson his-tuyg'ularining eng nozik va eng go'zal qirralari namoyon bo'ladi. Xalq ijodiyotining katta xazinasi hisoblangan xalq qo'shiqlari va kuylari ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o'tib kelayotgan bebaho boylik hisoblanadi.

Musiqa san'atida forteplano ijrochiligi eng ommalashgan turlardan biri sanaladi. Har bir xalqning o'z milliy cholg'u sozlari bo'lishi barchaga ma'lum. Bugungi kunda dunyoning barcha xalqlari orasida eng ommalashgan umuminsoniy cholg'u sozlari ham mavjud. Bulardan biri – forteplano cholg'usidir. Ushbu cholg'u uchun jahonning barcha taniqli kompozitorlari qatorida O'zbekiston kompozitorlari ham yorqin asarlar yaratdilar. Ular yosh ijrochilar tomonidan sevib ijro etib kelinmoqda. Forteplanoda o'tirish, ijrochilik holati. Ma'lumki, har qanday cholg'uni ijro etishni

o'rganishda avval cholg'u oldida to'g'ri o'tirib, gavdani, oyoq-qo'llarni erkin tutish kabi ko'nikmalarni o'zlashtirish muhimdir. Bu ko'nikmalarning o'zlashtirilishi ijrochilik holatining to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Forteplano ijrochiligida 3 ta tayanch nuqtalari mavjud bo'lib, bular oyoq holati, o'rindiqa (stulda) o'tirish holati va "qo'l holati" (barmoqlar)dir.


1. Oyoqlarning holati. Tizza bug'imidagi burchak 90 gradus bo'lishi kerak, shunda oyoqda yetarlicha tayanch bo'ladi. Agar o'quvchining bo'yi bunday sharoitni hisobga olgan holda oyog'ini to'g'ri qo'yishga imkon bermasa, unda bunday vaziyatni to'g'irlash uchun oyoq uchun mahsus taglik mavjud. Oyoqlar pedal oldida yoki pedal ustida joylashadi, agar ular ishlatilsa, ya'ni pedallar. Pedal, oyoq tagi (tovon) bilan emas, balki oyoq uchi bilan olinadi. Oyoqlar-tovushni to'g'ri olishda, ayniqsa kuchli fortega, (qattiq chalish) o'tishda zarur bo'lgan tayanch. Oyoqlarni to'g'ri qo'yishda siz ijro davomida ham stuldan yengil turishingiz mumkin.

2. Ijro jarayonida ijrochi tomonidan egallanadigan o'rindiqli balandligi (stulni balandligi) va kursi maydonining hajmi. O'rindiqa (stulda) o'tirganda, butun o'rindiqaqa emas, balki uning yarmiga mustahkam o'tirish kerak. O'rindiqli balandligi esa maxsus burama moslama yoki taxtachalar bilan shogirdga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Uning balandligi shunday qo'yilgan bo'lishi kerakki, unda

tirsaklar klavishdan pastda emas, balki ular bir tekis balandlikda bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

3. Qad-qomati va qo'l holati. Qad-qomatning to'g'riligini his etish orqa (umurtqa) bo'ylab o'tuvchi, tananing egiluvchanligi, butun gavdaning, bel mushaklarining mustahkam ushlab "sterjen" ("tayoqchani") tarangligini his etish bilan bog'liqdir. Barmoqlar uchinchi – eng muhim tayanch nuqtalardan biri sanaladi. Gavdani tik tutgan holda qomatni biroz oldinga, cholg'uga yaqin tutib, "qo'l holati" (barmoqlar)ni qo'yganda bilak tepaga ko'tarilmagan,

tirsak tanadan 30 gradus burchak ostida bo'lishi maqsadga muvofiq. Yelkalar erkin holatda hamda o'quvchining qaddi rostlangan bo'lishi lozim. Qo'llar yumaloq va klavishni bosganda barmoqlar uchiga tayangan bo'lishi kerak. Ko'p miqdorda turli balandlikdagi tovushlarni ikki qo'lida ijro etish uchun bir-biriga chiziq bilan bo'lingan ikkita nota yo'lidan foydalaniladi: yuqoridagi qator o'ng qo'lida, pastdagi qator esa chap qo'lida ijro etish uchun mo'ljallangan. Ularning "akkolada" deb nomlanuvchi yoy birlashtirib turadi.



1-rasm. Qol holati

Ta'lim oluvchilar o'rganishlari lozim bo'lgan eng birinchi kichik asarlar – bir ovozli qo'shiqlar bo'lib, ular navbatma-navbat ikki qo'l bilan chalish uchun mo'ljallangan. Repertuarni tanlash. Fortepiano ijrochiligining boshlang'ich davrida ijro repertuarining ko'lami nihoyatda kengdir. Jahon kompozitorlarining musiqiy namunalari bilan birga, O'zbekiston kompozitorlarining milliy ruh bilan sug'orilgan ko'plab namunalari, o'zbek xalq kuylarining fortepiano uchun moslashtirilgan variantlari mavjuddir. Ta'lim oluvchilarning badiiy ijrochilik tafakkurini boyitish, texnik imkoniyatlarini rivojlantirish uchun turli xarakterdagi asarlarni tanlash, zamonaviy kompozitorlarning asarlari bilan birga, O'zbekiston va jahon musiqa madaniyati durdonalaridan namunalari bilan tanishib borish muhim ahamiyatga ega.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Nailya Karimova., Farxodjon Nazarov. Fortepiano o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma), Toshkent. 2020
2. Djamalova.D. "Fortepiano" darsligi.-T. "Musiqqa" 2018 y

O'quvchilar o'rganishi kerak bo'lgan ilk asarlar bir ovozli qo'shiq namunalari bo'lib, ular asta sekin ikki qo'l bilan chalish uchun mo'ljallanadi. Ikki qo'l orasida taqsimlangan cholg'u kuyini yanada aniq tushunish uchun sekin tempda kuyning she'riy matnini qo'shiq qilib kuylash juda foydalidir.

Yetuk sozanda va xonanda sifatida barkamol ijodkor bo'lish barcha zamonlarda inson aql-zakovati, musiqa ilmi tushunchalari yo'naltirilgan eng muhim soha sifatida qarashgan.V. A. Suxomlinskiy musiqa tarbiya –bu musiqachi tarbiyasi emas, inson tarbiyasidir, shunday ekan, hozirgi kelajak avlodni tarbiyalashda san'at muhim o'rin tutadi. San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyatini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

## MUHANDISLIK, ILM-FAN

## «POYEZDLARNI TORTISH ASOSLARI» FANIDAN MUAMMOLI MA'RUZALARNI O'TISH

*Ablyalimov Oleg Sergeyevich**Toshkent davlat transport universiteti professori  
texnika fanlari nomzodi,  
O'zbekiston, Toshkent**Keldibekov Zokirbek Olloberdiyevich**Toshkent davlat transport universiteti, assistenti, magistr,  
O'zbekiston, Toshkent**G'ayratov Baxodirjon Iqboljon o'g'li**Toshkent davlat transport universiteti, assistenti, magistr,  
O'zbekiston, Toshkent*

## TO CARRYING OUT A PROBLEM LECTURE FOR THE DISCIPLINE "FUNDAMENTALS OF TRACTION TRAIN"

*Oleg Ablyalimov**Doctor of philosophy, professor of Tashkent state transport university,  
Uzbekistan, Tashkent**Zokirbek Keldibekov**Master, assistant of Tashkent state transport university,  
Uzbekistan, Tashkent**Baxodirjon Gayratov**Masters degree, assistant of Tashkent state transport university,  
Uzbekistan, Tashkent*

## ANNOTATSIYA

Tanqidiy fikrlash va interfaol o'qitish usullarini hisobga olgan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning xarakteristikasi berilgan. Lokomotiv mutaxassisligi bakalavriat talabalari uchun muammoli ma'ruzani o'tkazish usuli "Klaster" pedagogik texnologiyasidan foydalanish misolida, shuningdek jadval shaklida "Insert" texnikasining protsedurasi bilan amalga oshiriladi.

## ABSTRACT

The characteristics of modern pedagogical technologies are given, taking into account critical thinking and interactive teaching methods. A methodology for conducting a problematic lecture for undergraduate students of a locomotive specialty, implemented on the example of using the pedagogical technology "Cluster", as well as the procedure of the "Insert" technique in tabular form, is proposed.

**Kalit so'zlar:** pedagogic texnologiya, fikrlash, interaktiv metod, chaqiruv, tushunish, fikrlash, his qilish, xotira.

**Keywords:** pedagogical technology, thinking, interactive method, challenge, comprehension, reflection, feeling, memory.

Ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish natijasida "yangi shakllanish" mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha ta'limning yangi modeli qabul qilindi, buning uchun birinchi navbatda, oliy ta'limning barqaror va maqsadli rivojlanishini o'z ichiga olgan normativ hujjatlar va dalolatnomalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarur.

Toshkent davlat transport universiteti (TDTU) O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining

o'quv bo'linmasi bo'lib, temir yo'l transporti uchun ko'plab asosiy fanlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi, shuning uchun ham tor yo'naltirilgan xususiyatga ega. Shu munosabat bilan "Lokomotivlar va lokomotiv xo'jaligi" kafedrasidan o'quv reja ishlab chiqilgan bo'lib, unga muvofiq o'qitiladigan barcha 32 ta fan, shu jumladan, ta'limning birinchi bosqichi bakalavriat uchun 17 ta fan va ta'limning ikkinchi bosqichi magistratura talabalari uchun 15ta fan

bo'yicha na'munaviy va ishchi o'quv dasturlar ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni bilishning tarkibiy qismi bo'lgan tafakkurga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar [1] yordamida amalga oshirish mumkin.

Ma'lumki, psixologik nuqtai nazardan bilish (uning jarayoni) quyidagi kategoriyalardan iborat: hissiyot, idrok, xotira, tafakkur va tasavvur. Ularning ta'riflarini qisqacha keltiramiz.

Sezish - bu sezgi organlariga ta'sir qiluvchi ob'ektiv voqelik, narsa va hodisalarning aksidir. Sezish asosida miya yarim korteksida ob'ekt, ob'ektiv voqelik yoki hodisaning yaxlit qiyofasini shartli ravishda aks ettiruvchi idrok shakllanadi. Shuning uchun idrok sezishdan ko'ra murakkabroq jarayondir.

Xotira insonning ma'naviy sohasining asosidir, ammo zamonaviy "pedagogik" yondashuv nuqtai nazaridan oldinga harakat qilmaydi.

Tafakkur fikrlash jarayonining kategoriyasi bo'lib, bilimga tayangan holda tasvir, ob'ekt, hodisa yaratish esa tasavvurdir.

Shunday qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosini tafakkur jarayoni, ya'ni muammoni shakllantirish, miyani ushbu muammoga murojaat qilish va uni hal yetish, mustaqil ishlarni, shuningdek, ta'lim jarayonida o'z-o'zini tarbiyalashni hisobga olish tashkil etadi.

Pedagogik texnologiyaning uch turi mavjud [2]: sxolastik o'qitish texnologiyasi, ma'muriy va zamonaviy pedagogik texnologiya.

O'qitishning sxolastik texnologiyasi (dastlabgi asrlardan XVIII-asrgacha, O'zbekistonda esa XX-asrga qadar) bilan bilim manbai faqat yod olishni talab qiladigan o'qituvchi edi. Bilim yetarli darajada berilmas edi (ozgina!), ya'ni tarbiyaviy ishlar samarasiz tashkil etilgan.

Boshqaruv texnologiyasi (XVII -asrdan hozirgi kungacha) tushuntirish va illyustrativ o'qitish usullariga asoslanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya rejalashtirish, o'tqazish va yakuniy "o'lchanadigan" natijaga erishishdir. Bundan tashqari, u o'quvchining mustaqil o'qishini, shuningdek, o'quv jarayonida unga erishish va uni targ'ib qilishda fikrlash jarayonini rivojlantirishni talab qiladi.

Tabiiyki, yuqorida sanab o'tilgan pedagogik texnologiyalarning eng ilg'or qismi zamonaviy pedagogik texnologiya bo'lib, uni amalga oshirish uchun quyidagi talablarni bajarish kerak:

- nafaqat talabani o'rgatish, balki o'zini (o'qituvchi) o'rgatish va o'rganish kerak;
- o'quv jarayonida asosiy materialni o'zlashtirishga erishish;
- asosiy materialni barcha talabalar (talabalar, o'quvchilar ...) tomonidan to'liq o'zlashtirishga erishish;
- o'quv jarayonida barcha tahsil olayotganlarni "faollashtirish";
- o'quv jarayonini shunday rejalashtiringki, o'quv jarayoni yakunida qo'yilgan mjaqsadga erishilsin;
- o'qitishning interfaol usullaridan foydalanish;
- o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirayotganda, albatta fikr-mulohaza bo'lishi kerak.

Zamonaviy pedagogik texnologiya asosida o'qitishni amalga oshirish jarayonida o'qituvchining o'zi maqsad qo'yadi, ya'ni o'quv mashg'ulotlari yakunida talaba qanday bilim, tushuncha va qoidalarni o'zlashtirishi kerakligini o'zi belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida aytib o'tilganlarning oraliq natijasi olib shuni ta'kidlash joizki, har bir o'qituvchi o'zining o'qitish texnologiyasiga ("texnikasiga") ega, unga quyidagilar kiradi-dasturlashtirilgan o'qitish, texnik o'qitish vositalari va pedagogik texnologiyalar.

Shuningdek, pedagogik texnologiyalarning markazida tanqidiy fikrlash, ya'ni tafakkur rivojlanishining eng yuqori bosqichi yoki boshqacha qilib aytganda, "chegara" turadi. Har bir hodisa va hodisaga tanqidiy munosabatda bo'lish va har doim yuzaga kelgan yoki rivojlangan vaziyatdan chiqish yo'lini qidirish kerak. Demak, inson, bizning holimizda esa o'qituvchi (o'qituvchi, ustoz) o'z bilimiga doimo tanqidiy munosabatda bo'lishi kerak.

E'tibor bering, qobiliyatli odamlar tanqidiy fikrlash, ya'ni "shubhalanadigon", muammoni hal qilish va uni hal qilish uchun mohiyatni qidiradigan odamlardir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tanqidiy fikrlashni rivojlantirganlarga yangi narsalarni kashf qilishga qodir.

Tanqidiy fikrlash quyidagi bosqichlardan iborat [3]: chaqiruv, tushunish va aks ettirish.

Birinchidan, talabani biz qo'yadigan yoki o'rgatadigan muammoga qiziqtirish kerak. Keyinchalik, biz ikkinchi bosqichga o'tamiz - turli usullar va texnikalar bilan amalga oshiriladigan tushunish (taxminan 46 hil turi bor). Bundan keyin buni yakunlovchi oxirgi uchinchi bosqichi - aks ettirish.

Interfaol o'qitish usullari zamonaviy pedagogik texnologiyaning yetti qoidasidan biri hisoblanadi, lekin bu o'qitish usullarini "suiste'mol" qilmaslik kerak. Mashg'ulotlarni yuqorida sanab o'tilgan pedagogik texnologiyalarning yetti qoidasi (talablari)ning turli kombinatsiyalarida har tomonlama olib borish zarur. Shu bilan birga, har bir o'quv mashg'ulotini o'tkazish jarayonida majburiy shartlar quyidagilardir: chaqiruv, tushunish va aks ettirish - tanqidiy fikrlash bosqichlari.

Quyida "Poyezdlar harakati tenglamasi va uni yechish usullari" [4,5] mavzusi bo'yicha muammoli ma'ruza o'tkazish jarayonida bir qancha yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni ko'rsatib o'tamiz.

Klaster (to'plam, bog'lam) - bu axborot xaritasini tuzish usuli, ya'ni butun tuzilmaning ma'nosini aniqlash va diqqatni jamlash uchun biron bir asosiy omil atrofida g'oyalarni to'plash Ichi rasmda ko'rsatilgan.

Klaster yaratish qoidalari quyidagicha. Doska yoki katta varaqning o'rtasiga mavzuning kalit so'zini yoki nomini bir yoki ikki so'z bilan yoziladi, bizning holatlarimizda bu "Poyezd" so'zi bo'ladi.


Kalit so'z bilan birgalikda biz "sun'iy yo'ldoshlar" ni uning tomoniga joylashtiramiz kichikroq doirachalar - bu mavzuga oid so'zlar: "Lokomotiv" va "vagonlar" ularni "asosiy" so'z - "poezd" bilan chiziqlar bilan bog'laydi. Bu so'zlar - "sun'iy yo'ldoshlar" "kichik sun'iy yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin (1-rasmga qarang). Yozuv belgilangan vaqt tugaguncha yoki g'oyalalar

tugamaguncha davom etadi. Va keyin klasterlar muhokama uchun almashiladi.

Boshqa o'quv materiallari - "Insert" usuli, ya'ni samarali o'qish va fikrlash uchun matndagi yozuvlarning interaktiv tizimi, kitob bilan ishlash bo'yicha o'quv ko'nikmalarini rivojlantirish, talbalar matn bilan ishlash jarayonida o'z ta'limlarini faol ravishda kuzatib borish imkonini beradi.

«Insert» texnikasi tartibi:

- oldingi bilimlarni yangilash va aqliy hujum yordamida matndagi eslatmalar uchun savollar berish.
- matnda uchraydigan har xil turdagi ma'lumotlarni individual o'qish va belgilash.
- "Aqliy hujum" natijalarini o'qish natijalari bilan bog'lash va muhokama qilish.
- jadval asosida olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish.



1-rasm. "Klaster" tizimi bo'yicha poezd uchun ma'lumotlar xaritasi

Masalan, 1-jadvalda "Insert" texnikasi tomonidan qabul qilingan matndagi quyidagi belgilar tizimi ko'rsatilgan:

- (√) – bilgan narsasini tasdiqlaydi (qo'shilaman),
- (+) – yangi ma'lumot (shubha),
- (-) – men bilgan narsalarga zid (qo'shilmayman),
- (?) – meni hayratga soldi, bu haqda qo'shimcha ma'lumot kerak (muhokamaga olib boring).

1-jadval.

Poezdga ta'sir qiluvchi kuchlar va lokomotivlarning ish rejimlari

Javob variantlari	√	+	-	?
Tangensial tortish kuchi		+		
Harakatga qarshilik kuchi	√			
Poyezdning tormozlanish kuchi			-	
Tortish rejimi		+		
Salt yurish rejimi	√			
Xizmat tormozi rejimi				?
Favqulotda tormozlanish rejimi		+		?

**Adabiyotlar royxati:**

1. Фарберман Б.Л. Передовые педагогические технологии [Текст] / Б.Л. Фарберман // Учебник для высших учебных заведений. - Ташкент: ФАН, 2000. – 347 с.

2. Woods, H. Arthur and Charles Chiu. (2003). "Wireless Response Technology in College Classrooms." Retrieved 2 March 2005 from Michigan Virtual University's web site, Tools: The Technology Source: <http://ts.mivu.org/default.asp?show=article&id=1045>.
3. Adams, William J. and B.J. Jansen. (1997). "Information Technology and the Classroom of the Future." Presented at the Society for Information Technology in Education Conference. Orlando, FL. Retrieved 19 February 2005 from: <http://jimjansen.tripod.com/academic/pubs/site97/site97.pdf>.
4. Кузьмич В.Д. Теория локомотивной тяги [Текст] / В.Д. Кузьмич, В.С. Руднев, С.Я. Френкель // Учебник для вузов железнодорожного транспорта. – М.: Маршрут, 2005. – 448 с.
5. Абляимов О.С. Основы тяги поездов [Текст] / О.С. Абляимов, Д.Н. Курилкин, И.С. Камалов, О.Т. Касимов. Под общей редакцией О.С. Абляимова // Учебник для высших учебных заведений железнодорожного транспорта. – Ташкент: «Complex Print nashriyoti», 2020. – 662 с.

## BAKALAVR TALABALARIGA MAXSUS FANLARNI O'QITISH BO'YICHA TA'LIM BERISH MASALALARI

**Ablyalimov Oleg Sergeyevich**

*Toshkent davlat transport universiteti professori  
texnika fanlari nomzodi,  
O'zbekiston, Toshkent*

**Keldibekov Zokirbek Olloberdiyevich**

*Toshkent davlat transport universiteti, assistenti, magistr,  
O'zbekiston, Toshkent*

**G'ayratov Baxodirjon Iqboljon o'g'li**

*Toshkent davlat transport universiteti, assistenti, magistr  
O'zbekiston, Toshkent*

## TO THE QUESTION OF TRAINING OF BACHELOR STUDENTS ON SPECIAL DISCIPLINES

**Oleg Ablyalimov**

*Doctor of philosophy, professor of Tashkent state transport university,  
Uzbekistan, Tashkent*

**Zokirbek Keldibekov**

*master, assistant of Tashkent state transport university,  
Uzbekistan, Tashkent*

**Baxodirjon Gayratov**

*Masters degree, assistant of Tashkent state transport university,  
Uzbekistan, Tashkent*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada interaktiv ta'lim usullari va yer usti g'ildirakli transport tizimlarining tavsifi berilgan. "Lotus guli" pedagogik texnologiyasidan foydalangan holda darslarni o'tkazish metodikasi yer usti transport tizimlari - bakalavriat talabalari uchun elektrovoz misolida ko'rsatib o'tildi.

### ABSTRACT

The characteristics of interactive teaching methods and ground wheeled transport systems are given. A methodology for conducting classes using the pedagogical technology "Lotus Flower" is proposed on the example of a land vehicle - a electric locomotive for undergraduate students.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, elektrovoz, arava, g'ildirak juftligi, elektr dvigatel, transformator, generator, apparatlar, motor-generator.

**Keywords:** technology, electric locomotive, bogie, pair of wheels, electric motor, transformer, generator, apparatus, motor - generator.

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida interfaol o'qitish usullari sifatida katta muvaffaqiyat bilan foydalanish mumkin bo'lgan ayrim zamonaviy pedagogik texnologiyalar [1], masalan, Lokomotiv mutaxassisligi bo'yicha bakalavr talabalari uchun qisqacha tavsifi keltirilgan.

1. Insert-ko'lida qalam bilan matnni o'qish (o'rganish), ya'ni "+" - rozi; "v" - shubha; "-" - rozi emas; "?" - muhokama qilish.

2. Juftlikda uchta ish turi mavjud: statik (bir juft talaba o'zgaransa, ya'ni doimiy); dinamik (ya'ni juftlikdagi talabalardan biri boshqa talabaga o'zgaradi); vaqtinchalik (zaif talaba kuchli talabaga "bog'langan" bo'ladi va aksincha).

3. Klaster (to'plam) muammo tushunchasining kengaytmasidir.

4. Aqliy bosim (aqliy hujum) uzatishning sinonimidir: nima?, qayerda?, qachon?.

5. Ikki taraflama arra (bumerang) - o'rganilgan material qismlarga ajratilib, har bir guruh o'quvchilariga tarqatiladi. So'ngra har bir shakllangan guruh materialning bir qismini o'rganadi va o'zlashtiradi, shundan so'ng uni izohlaydi ... - shunday qilib, butun talabalar guruhi butun materialni o'rganadi va boshqaradi.

6. Insho-yozma yozuvlar, ya'ni o'quv mashg'ulotlarida siz tanqidiy fikrlashning "rejimida" yozishingiz mumkin bo'lgan uch - o'n daqiqalik

insholarni tashkil qilishingiz mumkin: chaqiruv, tushunish va aks ettirish.

7. BBB-bilaman, bilishni istayman, bilib oldim. Usulning amalga oshirilishi quyidagicha. Dastlab materialni o'rganishdan oldin pozitsiyalar belgilangan jadval tuziladi, keyin materialni o'rganish uchun "muammoni qo'yilishi" va o'rganish jarayonining oxirida natija olinadi.

8. Ilg'or ma'ruza - ma'ruzani to'rt yoki beshta muammoli savolga bo'linadi, so'ngra birinchi muammoli savolni muhokama qilinadi va u bo'yicha xulosa chiqariladi va hokazo. An'anaviy o'qitish usulida - o'qituvchi ma'ruzani boshidan oxirigacha faqat o'zi tushuntiradi (o'qiydi).

9. O'z fikrini (fikrlarini) ifodalash-talabalarining har biri o'qituvchining harakatlarini "baholaydi" ("muhokama qiladi"), u haqidagi fikrini bo'sh qog'ozga bayon qiladi.

10. Yozma va og'zaki nutq - o'quvchilar "kuchliroq" bo'lgan kishilarga alohida e'tibor berishadi. Boshqa tomondan, har ikkala nutqning rivojlanishini ham uyg'unlashtiradi.

Toshkent Davlat Transport universiteti (TDTU) temir yo'l transporti muhandisligi fakulteti lokomotivlar va lokomotiv xo'jaligi kafedrasida bakalavriyat bosqichi talabalariga dars o'tish uchun ishlab chiqqan tavsiyalarimiz quyida keltiriladi.

Ma'lumki [2] yer usti transporti tizimlariga tashqi kuchni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash (arqonda tortish) orqali harakatlantiruvchi kuch yaratish yoki qattiq yo'lining reaksiyasidan foydalangan holda harakatlanadigan texnik transport vositalari - barcha o'ziyurar g'ildirakli yer usti transporti, shu jumladan temir yo'l transporti kiradi, xususan : dizel (dizel) va elektr (elektr) tortish lokomotivlari.

Lokomotiv - bu harakatlantiruvchi kuchni (tortish kuchini) yaratish uchun mo'ljallangan kuchli tortish

mashinasi bo'lib, uning ta'siri ostida poezdning yuklari (yuklari bo'lgan vagonlar) va yo'lovchilar (yo'lovchilar bilan vagonlar) temir yo'l bo'ylab harakatlanadi.

Lokomotivning turi qurilma va uning elektr stantsiyasining ishlash printsipli bilan belgilanadi.

Teplovoz bu porshenli ichki yonuv dvigateliga ega bo'lgan dizelli mashina bo'lib, g'ildirak juftliklariga elektr energiya, gidravlik yoki mexanik uzatmalar orqali uzatadi. Yonilg'ining ichki kimyoviy energiyasini dizel dvigatelda mexanik ishga aylantirish silindr ichida yopiq hajmda amalga oshiriladi.

Elektrovoz -elektr stantsiyalaridan elektr uzatish liniyalari, tortish podstansiyalari va kontakt simlari orqali quvvat oladigan tortish elektr motorlari yordamida harakatlanadigan Lokomotiv.

Lotus gulining tasvirini o'zida mujassam etgan "Lotus gul" sxemasiga muvofiq biz taklif qilgan pedagogik texnologiyani amalga oshirish jadvalda ko'rsatilgan, 1-jadval, "poydevor" to'qqizta katta kvadratdan iborat bo'lib, ularning har biri to'qqizta kichik kvadratdan iborat.

"Muammo" ning boshlanishi katta va kichik kvadratlar markazlarida 1-jadval (elektr lokomotivi) da ko'rsatilganidek o'rnatiladi.

Pedagogikada "Blits o'yin" metodidan foydalanish bilimlarni sinash yoki mustahkamlashga qaratilgan kasbiy ta'lim jarayonida qisqa muddatli o'yin o'zaro ta'sirlaridir.

Biznes va ro'lli o'yinlar bilan bir qatorda, blits o'yin talabalarining muloqot, maqsadga muvofiqlik, bilim va intyellektual faolligini rivojlantirishga yordam beradi va u mashg'ulotning turli bosqichlarida: boshida va yangi materialni taqdim etishda, bilimlarni mustahkamlashda teng darajada samarali ishlatilishi mumkin.

1-jadval.

Lotos guli pedagogic texnologiyasi sxemasi - Elektrovoz

Magnit sim	Uzluksiz o'ram	Kirishlar	Yakor vali	Ostov	Kollektor	Bandaqli g'ildirak juftligi	Bandaqsiz g'ildirak juftligi	G'ildirak markazi
Pog'onali boshqaruvli cho'lg'am	a) Tortuv transformatori	Kengaytirgichli bak	Old va orqa podshipnik shittlari	b) Tortuv el-ektrodvigateli	Asosiy qutb o'zagi	Tishli g'ildirak	c) G'ildirak juftligi	Bandaj
Tekis tartibga solingan cho'lg'am	Spirally paral-lel cho'lg'am	Sovutish tizimi	Qo'shimcha qutb o'zagi	Qo'shimcha qutb cho'lg'ami	Asosiy qutb cho'lg'ami	Kauchukli g'ildirak juftlari	Motor osmali podshibnik	O'q
Boshqaruv vositalari	Himoya vositalari	Avtomatik boshqaruv qurilmalari	Tortuv transformatorlari	Tortuv el-ektrodvigateli	G'ildirak juftligi	Yuqori kuchlanishli kamera	Mashinist o'rindig'i	Mashinist yordamchisi o'rindig'i
Tugmachali kalitlat va tum-blerlar	b) Elektr ap-paratlar	O'lehov asboblari	Elektr jihozlari	<b>Elektrovoz</b>	Machinist kabinasi	Qo'l tormozi	d) machinist kabinasi	Mashinist kontrolleri
Reversor	Yordamchi qurilmalar ap-paratlari	Yoritish appa-ratlari	Aravacha	Pantograflar	Motor generatorlar	Boshqaruv pulti	Mashinist krani № 394	Mashinist krani № 254
G'ildirakli motor blok	g) Aravacha	Aravacha ramasi	Asosi	Pastgi ramalar	Yuqoridagi ramalar	Ostov	Val	Podshibnik shittlari
Tortuv uzatmasi		Ressorali osma	Uzatma silindri	<b>f) Pantograflar</b>	Polozlar	Ventilyator	d) Motor gener-atorlar	Dvigatel kollektori
Tormoz silindri	Tormozning richagli uzat-masi	Buksa uzeli	O'tqazgich kojuxi	Arava prujinasi	Aravachalar	Cho'tka ushlagichi	Qo'shimcha qutb o'zagi	Asosiy qutb o'zagi

Quyidagi 2-jadvalda 3VL80c elektr lokomotivining tashqi ko'rinishini yaxshilash ishlari va turli ish

sharoitlarida lokomotiv ekipajlarining ish sharoitini yaxshilash ishlari ko'rsatilgan [3].

2 jadval.

**"Blits o'yini" usulini amalga oshirish tartibi**

Guruh bahosi	Guruh hatosi	To'g'ri javoblar	Shaxsiy xato	Shaxsiy baho	Javoblarni sinflarning o'sishi bo'yicha tanlash
5	3	3	3	5	Yuqori kuchlanishli kameralarni rekonstruksiya qilish
5	5	5	5	5	Konditsioner o'rnatish
5	1	1	2	2	Kabinaning frontal qismi konstruksiyasini o'zgartirish
2	2	4	4	5	Yangi mashinist pultini o'rnatish
2	4	2	1	2	Mashinist kabinasida karkaz va pol shitlarini konstruksiyasini o'zgartirish

**Adabiyotlar royxati:**

1. Фарберман Б.Л. Передовые педагогические технологии [Текст] / Б.Л. Фарберман // Учебник для высших учебных заведений. - Ташкент: ФАН, 2000. – 347 с.
2. Кузьмич В.Д. Теория локомотивной тяги [Текст] / В.Д. Кузьмич, В.С. Руднев, С.Я. Френкель // Учебник для вузов железнодорожного транспорта. – М.: Маршрут, 2005. – 448 с.
2. Абляимов О.С. Оптимизация перевозочной работы локомотивов: вопросы теории, методы, расчёты, результаты [Текст] / Монография. - «Complex Print nashriyoti», 2020. – 488 с.
3. Абляимов О.С. Эффективность методов нормирования расхода энергии на тягу поездов [Текст] / А.В. Толкачёв, О.С. Абляимов // *Тр. ТашИИТ, вып. 105 / Ташкентский ин-т. инж. ж-д транспорта.* – Ташкент, 1974. – С. 27 – 35.

## TEMIR YO'L UCHASTKASI BO'YLAB HARAKAT OPTIMAL VAQTI VA POYEZD BOSHQARUV REJIMINING HISOBIY TAHLILI

*Ablyalimov Oleg Sergeyevich*

*Texnika fanlari nomzodi Toshkent davlat transport universiteti proffessori,  
Toshkent sh., O'zbekiston*

*Sagatova Muborak Abdumalik qizi*

*Magistr,  
Toshkent davlat transport universiteti assistenti,  
Toshkent sh., O'zbekiston*

### ANALYSIS OF CALCULATIONS OF THE OPTIMAL TRAVELTIME AND THE REGIME OF DRIVING MODE TRAIN ON THE RAILWAY SECTION

*Oleg Ablyalimov*

*Doctor of philosophy, professor of Tashkent State Transport University,  
Uzbekistan, Tashkent*

*Muborak Sagatova*

*Master,  
Assistant of Tashkent State Transport University  
Uzbekistan, Tashkent*

#### ANNOTATSIYA

Peregon bo'lab poyezdning harakatlanish vaqtini hisoblash ketma-ketligi hamda temir yo'l uchastkasining alohida peregonlaridagi poyezd harakatlanish vaqtini hisoblash borasida misollar keltirilgan.

#### ABSTRACT

The order is indicated for calculating the travel time of a train along a track and an example of calculating the optimal travel time of a train on separate hauls of a section of a railway is given.

**Kalit so'zlar:** optimallashtirish, tahlil, boshqarish rejimi, teplovoz, harakat vaqti, tanlash, peregon, uchastok, tarkib, poyezd.

**Keywords:** optimization, analysis, driving mode, diesel locomotive, running time, selection, haul, section, composition, train.

Ushbu tadqiqot [1] ishning davomi bo'lib, temir yo'l transportini tashkil etishning real sharoitlarida poyezdlar harakatlanish rejimi va ish vaqtini optimallashtirish orqali lokomotivlarning tashish ishlari samaradorligini asoslashga bag'ishlangan.

Uchastok (yo'nalish) bo'lab optimallashtirish hisob-kitoblari barcha peregonlar bo'yicha harakat vaqtlarini optimallashtirishni, zarur o'tkazuvchanlikni hisobga olish va har yiligi keltiriladign milliy iqtisodiy


xarajatlarni minimallashtirgan holda harakat vaqtining muqobil qiymatini va poezdlarni boshqarish rejimining yakuniy versiyasini tanlashni o'z ichiga oladi.

1-jadval va 1 rasmda U-Y va Y-X uchastkalar uchun temir yo'l ekspluatatsiyasi amaliyotiga peregonlar bo'yicha optimal harakat vaqtlarini tanlashni joriy etish maqsadga muvofiqligini isbotlab beruvchi hisoblash natijalari ko'rsatilgan.

*1 - Jadval.*

**U-Ch va U-X uchastkalaridagi peregonlar bo'yicha harakat vaqtining muqobil qiymatini tanlash orqali lokomotivlarning yuk tashish ishlarini optimallashtirish natijalari. Teplovoz 2TЭ10M. Yo'nalish toq:  $\Gamma = 13,6$  mln. t netto/yil  $Q_p = 2300$  t,  $m_p = 192$  o'q; yo'nalish juft:  $\Gamma = 19$  mln. t netto/yil,  $Q_p = 2800$  t,  $m_p = 192$  o'q**

Uchastkalar	Yo'nalish	Jadval bo'yicha variantlar		Muqobil variant		Tejamkorlik $\Delta\Theta_r$	
		$t_x, \text{min}$	$\Theta_r, \text{so'm/yil}$	$t_x, \text{in}$	$\Theta_r, \text{so'm/yil}$	$\text{so'm/yil}$	%
U-Ch	toq	109	2195560	119	2183750	-	-
	juft	103	2050850	118	1820608	-	-
	Har ikki tomonga	212	4246410	237	4004358	242052	5,7
U - X	toq	117	2515777	141	2314382	-	-
	juft	115	2617225	136	2476026	-	-
	Har ikki tomonga	232	5133002	277	4790408	342594	6,7



1-rasm. U-Y va Y-X uchastkalaridagi  $\Theta_r$ ,  $\Theta_r^n$ , va  $E_x$  qiymatlari o'zgarishining boshqaruv rejimi va poyezd harakat vaqtiga bog'liqligi

Hisob-kitoblar natijalari va yuqoridagi tavsiyalar temir yo'l transporti ishidagi hammaga ma'lum bo'lgan yo'nalish – yuklarni tez yetkazib berishga ma'lum darajada zid keladi. Ammo agar biz yutish parametri sifatida B – yetkazib berish vaqtini qabul qilsak shunday bo'ladi. Aksincha, ushbu parameter o'rniga B - keltirilgan yillik milliy – iqtisodiy harajatlarning umumiy ko'rsatkichi qiymati  $\Theta_r$  dan kelib chiqib xulosa qilsak harakatlanish vaqtini kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, bu holatda optimal poezdlarni boshqarish rejimlaridan foydalanish juda muhimdir.

Misol tariqasida T - A yo'nalishidagi bir seksiyali TE3 teplovozi totruvidagi yo'lovchi poezdlari uchun  $Q = 1000t$  va kuniga 10 juft, jadval standartlariga muvofiq,  $t^{\wedge} r = 194$  min., yoqilg'i sarfi bir vaqtning o'zida  $E_r = 630$  kg. Mehnat sharoitlarini rejalashtirish uchun yillik keltirilgan milliy iqtisodiy xarajatlar  $\Theta_r$  qiymatini hisoblash yiliga  $\Theta_r^{\wedge} r = 1126700$  rubl qiymatini ko'rsatdi. Harakat vaqtining muqobil qiymati va poezdni boshqarish rejimini tanlash bilan olib borilgan hisob-kitoblar poezdning umumiy harakat vaqti  $t_x = 198$  min., teplovozning to'liq hajmli dizel yoqilg'isi iste'moli  $E = 598$  kg hamda mos ravishda,  $E_r$  qiymati  $^{\wedge} * = 1084400$  rubl yiliga, ya'ni 3,8 foizga kam ni olish imkonini berdi. Yo'l profile murakkab bo'lgan uchastka peregonlarida jadval bo'yicha qabul qilingan harakat vaqtlari  $\Theta_r$  qiymatini ushbu peregonlarda poyezd harakat vaqtining muqobil

qiymati  $t_{\pi^{\wedge} *}$  dan “o'ngga” siljishiga olib keladi (1-rasmga qarang) va bu harakat vaqtining muqobil qiymatini optimallashtirish holda hisoblash orqali aniqlash zarurligini tasdiqlaydi.

Ushbu amaliyotlar, shuningdek, keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, odatda, peregon harakat vaqti harakat jadvali uchun [2,3] tavsiyalardagi tortuv hisob kitoblaridan olingan vaqtdan birmuncha katta ko'rsatiladi. Ushbu holat tashish ishlarining harajatlarini nisbatan qisqartirish va poyezdlar harakat jadvalini puxta amalga oshirishni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Biroq, bu poyezdlar vaqtini o'zgartirishlar asosan tegishli texnik-iqtisodiy asoslarsiz tajriba asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagi metodologiya bizga eng kam transport xarajatlarini ta'minlaydigan muayyan shartlar uchun poezdning ishlash vaqtini o'zgartirish uchun iqtisodiy jihatdan mumkin bo'lgan chegaralarni taqdim etishga imkon beradi. Temir yo'l boshqarmasida poezdning o'rtacha og'irligi  $Q_p$  va poezddagi o'qlarning o'rtacha soni  $m_p$  bo'lgan har bir bosqich uchun eng mumkin bo'lgan  $n_k^{\wedge} c$  pozitsiyasidan foydalangan holda tortishish hisoblarini amalga oshirish mumkin, bu ularning natijalarini real sharoitlarga yaqinlashtiradi va optimal yechimlarga yaqinlashtiradi.

Haydovchi kontrolleri pozitsiyasini aniqlash ish tajribasiga va kompyuterda olib borilgan tortish va iqtisodiy hisob-kitoblar ma'lumotlariga ko'ra amalga

oshiriladi.  $Q \neq Q_r$  qiymatida teplovoz machinist kontrolleri pozitsiyalarining tegishli o'zgarishi hisobiga belgilangan vaqtni amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Rejalashtiruvchi hodimga peregon bo'ylab poyezd harakatning aniq belgilangan vaqtni emas, balki uning machinist kontrolleri hisobiy pozitsiyasidagi o'zgarish chegarasining eng kichiq qiymati  $t_{\pi}^{\min}$  dan poyezd harakatining optimal qiymati  $t_{n^*}$  gacha bo'lgan qiymatni ko'rsatishning o'zi kifoya bo'ladi. Bunda jadvalning sifati yomonlashmasa va poyezd liniyalarini chizishda qiyinchiliklar yuzaga kelmasa yoki o'tkazish qobiliyati pasaymasa – unda poezdning optimal harakat vaqti yoki unga yaqin vaqtdan foydalanish kerak. Bu lokomotivlarni tashish ishlarining ma'lum hajmini ta'minlab, eng katta milliy-iqtisodiy samarani olish imkonini beradi. Poyezdlar harakati jadvalini tuzishda qabul qilingan harakat vaqtlarini ularning optimal qiymatlariga yaqinlashtirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish kerak. Masalan poyezdning peregon bo'ylab hisobiy harakat vaqti  $t_{p^{\min}}=12$  min, optimal poyezd harakat vaqti esa  $t_{p^*}=16$  min bo'lsin. Harakatlanish jadvalini tuzishda kelgan poyezd to'xtash imkoniga ega va 8 minut qarama qarshi poyezdni kutib turishi kerak bo'ladi. Bunday holatda juft poyezdning peregon bo'ylab harakatlanish vaqtini hisobiy deb emas muqobil deb qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi va va poezdlar jadvali sifatiga hech qanday zarar etkazmasdan sezilarli tejamkorlikka erishiladi. To'xtash vaqtini endi 8 daqiqa emas, balki 4 daqida deb qabul qilish mumkin bo'ladi va bu ish jarayonida hech qanday qiyinchiliklarni keltirib

chiqarmaydi. Peregon vaqtini minimal  $t_{\pi}^{\min}$  dan muqobil  $t_{\pi}^*$  qiymatgacha o'zgarishi harakat grafagini chizishni osonlashtiradi va tashish ishlarini samaradorligini oshishiga yordam beradi. Albatta tegishli eksperimental hisob-kitoblarni amalga oshirish va ushbu takliflarni amaliy tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi vaqtda yo'l boshqarmalari tomonidan amalga oshirilayotgan tortuv hisob-kitoblari buyurilgan yuk tyashish oqimi haqiqiy o'rtacha shartlarni aks ettirmasdan uchastkalarining eng ko'p yuk tashish qobiliyatini aniqlashni ta'minlaydi. Lokomotivlarni tashish ishlarining haqiqiy tashkil etilishi, lokomotivlarning uchastkalardagi ayni damda yuzaga kelayotgan shart sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshirilgan o'rtacha hisobiy tahlillar va ularni takomillashtirish istiqbollarni e'tiborga olgan holda amalga oshirilgan bo'lsa, tortuv hisoblarida aks ettirilishi mumkin.

$Q_p, m_p, z_p$  va  $n_k^c$  kattaliklar uchun amalga oshiriladigan hisoblashlar lokomotivlarni tashish ishlarini tashkil etish va texnologiyasi tufayli ularni takomillashtirishning aniq imkoniyatlarini tahlil qilishga yordam beradi. Lokomotivlarni tashish ishlarini eng foydali tashkil etishni aniqlash bilan bog'liq hisob-kitoblardan uchastkalar bo'yicha yuk ko'tarish qobiliyati bilan bog'liq hisob-kitoblarni ajratish kerak, bu esa uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni ko'rsatish uchun uchastkalarining birida tortuv-energiya hisoblari amalga oshirildi va natijalar 2-jadvalga kiritildi.

2 - Jadval.

**2ТЭ10М teplovozining tashish ishlarini turli xil tashkillashtirilishi va texnologiyasidagi natijalari**  
**U-X uchastkasi, uzunlik L = 127, 1 km,  $\Gamma = 19$  mln. t netto yiliga**

$Q_p$ va $T_p$ variantlari		$\frac{Q, t}{m, o'qlar}$	$t_{\Sigma}, min$	$E, kg$	$\frac{n_c}{poyezdlar sutkasiga}$	$\Sigma_{\Sigma}, rub/poyezd. uchast.$	$\Sigma_{\Gamma}, rub/yil$
Real bo'lmagan variantlar	1. PTR bo'yicha hisobiy [1] ( $n_k^p, q_0 = 17t/o'q, \delta = 0,675$ )	$\frac{3400}{200}$	112	940	22,8	187,5	200050
	2. Grafik uchun qabul qilingan $q_0 = 16,7, \delta = 0,67$	$\frac{3200}{192}$	115	910	24,3	186,0	2180225
Real variantlar	3. O'rtacha haqiqiy sharoitlar $q_0 = 14,55, \delta = 0,62$	$\frac{2800}{192}$	115	870	30,1	177,5	2617225
	4. O'rtacha sharoitlar uchun muqobil qiymat: $P_T^*, t_{iv}^*$ $q_0 = 14,55, \delta = 0,62$	$\frac{2800}{192}$	136	770	30,1	155,0	2476026

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, dastlabki ikkita ish varianti eng foydali hisoblanadi, lekin ayni paytda ular amalga mumkin emas. Og'irligi 3400 tonna va 3200 tonna bo'lgan poezdlar tomonidan belgilangan yuk tashishni to'liq bajarish deyarli mumkin emas.

Amalda, ushbu berilgan yuk oqimi o'rtacha og'irligi 2800 tonna bo'lgan poezdlar tomonidan amalga oshiriladi, bu lokomotivlarni tashish ishlarining sama-

radorligini sezilarli darajada kamaytiradi (3-variant). Biroq, ishning bu amalda mumkin bo'lgan variantini optimal  $R_{t^*}$  va  $t_{p^*}$  ni tanlash orqali muqobillashtiriladi va ma'lum bir yuk oqimini amalga oshirish uchun sarf harajatlarni deyarli 6-7 foizga kamaytirish mumkin.

Fikrimiz xulosasi sifatida shuni aytish mumkinki, barcha yuqorida keltirilgan ma'lumotlar lokomotivlarning

tashish ishlarini muqobillashtirish zarur ekanligini isbotlaydi. Bu esa o'z navbatida nafaqat O'zbekistonda balki ko'plab mamlakatlarda dolzarb bo'lib kelayotgan

muammolardan biri - poyezdlarning tortuvi uchun sarf bo'layotgan yoqilg'i-energiya harajatlarini sezilarli darajada qisqartirishga olib keladi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Абляимов О.С. К расчёту времени хода поезда по перегонам участка железной дороги [Текст] // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2020. № 10(79). - С. 88-90. DOI: 10.32743/UniTech.2020.79.10-1.
2. Абляимов О.С. Оптимизация перевозочной работы локомотивов: вопросы теории, методы, расчёты, результаты[Текст] / Монография. - «Complex Print nashriyoti», 2020. – 488 с.
3. Правила тяговых расчётов для поездной работы [Текст] / Всесоюзный научно – исследовательский институт железнодорожного транспорта. – М.: Транспорт, 1985. – 287 с.

## TEKNOLOGIK JAROYONLARNI MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA AVTOMATLASHTIRISH

*Allamberganova Mexribanu Mirzabek qizi*

*Navoiy davlat konchilik instituti Nukus filiali  
Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish  
va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) yo'nalishi talabasi,  
O'zbekiston, Nukus*

Odatda texnologik ob'ektni o'rganishda ma'lum qiyinchiliklar bo'lsa, unda modellashtirish usullari qo'llaniladi (masalan, ob'ektning xavfsizligi bo'yicha tajriba o'tkazish mumkin bo'lmasa). Modellashtirilayotgan ob'ekt xususiyatlarini uning modelida olingan analogik xususiyatlarni tahlil qilish yo'li bilan o'rganishga modellashtirish deyiladi. Bunda model va ob'ekt o'xshash bo'lishi kerak. Odatda o'xshashlik fizik va matematik bo'ladi. Fizik modellashtirishda, ob'ekt xususiyatlari kichik masshtabli moslamalarda o'rganilib, u ob'ektni o'rganishni kam xarajatlar bilan o'tkazishga imkoniyat beradi. Fizik modellashtirishda ob'ektning ba'zi bir xususiyatlari modelda olingan natijalardan farqli bo'lishi mumkin. Shuning uchun odatda fizik modellashtirishda odingan natijalarni to'g'ridan-to'g'ri ob'ekt uchun qo'llab bo'lmaydi. Matematik modellashtirish usuli oxirgi 30-40 yil ichida juda tez rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, zamonaviy kompyuterlarning imkoniyatlarini oshib borishi bilan matematik modellashtirish yo'li bilan texnologik jarayon xususiyatlarini o'rganish yaxshi natijalar bera boshladi.

Matematik modellashtirish uch bosqichda olib boriladi: O'rganilayotgan jarayon matematik modelini tuzish, Asosiy parametrlar qiymatlarini hisoblash uchun masalani yechishni dasturlash (algoritmash), Modelni o'rganilayotgan jarayonga adekvatligini aniqlash. Matematik modelni qurish ob'ektda ketayotgan xodisalarni ifodalaydigan matematik tenglamalar tizimsiga matematik model deyiladi.

Shunga asosan, texnologik jarayonning matematik modelini tuzishni quyidagi uch aspektda ko'rishimiz mumkin: mazmuniy, analitik va hisoblash.

Birinchi, ob'ektning fizik mohiyati o'rganilib, uning mazmuniy ifodasi tuziladi.

Ikkinchi, mazmuniy ifodani analitik ko'rinishda, ya'ni matematik tenglamalar tizimsi ko'rinishida ifodalanadi.

Uchinchi, modelni hisoblash tomonlari, ya'ni modellashtirish algoritmi aniqlanadi. Bunda matematik ifodani yechish usuli va yechish ketma-ketligi aniqlanib, ya'ni yechish algoritmi tuziladi.

Matematik model orqali obyektning xossalarini o'rganish matematik modellashtirish deb tushuniladi. Jarayon o'tishi optimal sharoitlarini aniqlash, matematik model asosida uni boshqarish va obyektga natijalarini olib o'tish uning maqsadidir. Matematik model tushunchasi matematik modellashtirish usulining asosiy tushunchasidir. Matematik model deb matematik belgilash yordamida ifodalanuvchi, qandaydir hodisa yoki tashqi dunyo jarayonini taxminiy tavsifiga aytiladi. Matematik modellashtirish o'ziga uchta o'zaro bog'langan bosqichlarni qamrab oladi:

1) o'rganilayotgan obyektning matematik tavsifini tuzish;

2) matematik tavsifi tenglamalar tizimini yechish usulini tanlash va modellashtiruvchi dastur shaklida uni joriy qilish;

3) modelning obyektga monandligi (adekvatligi)ni aniqlash.

Matematik tavsifni tuzish bosqichida obyektga asosiy hodisa va elementlari avval ajratib olinadi va keyin ular orsidagi aloqalar aniqlanadi. Har bir ajratib olingan element va hodisa uchun uning funksiyalanishini aks ettiradigan tenglama (yoki tenglamalar tizimi) yoziladi. Bundan tashqari, matematik tavsifga turli ajratib olingan hodisalar orasiga aloqa tenglamalari kiritiladi. Jarayon nisbatiga qarab matematik tavsif algebraik, differensial, integral va differensial tenglamalar sistemasi ko'rinishida ifoda etilishi mumkin. Yechim usulini tanlash va modellashtiradigan dasturiy ishlab chiqish bosqichi mavjud usullar ichidan eng samarali (samarali deganda yechimning tezligi va aniqligi nazarda tutiladi) yechim usulini tanlash nazarda tutiladi va avval yechim algoritmi shaklida, keyin esa - uni EHMda hisoblashga yaroqli dastur shaklida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishdagi modellashtirish obyektlari deganda quyidagilarni tushunish kerak:

1. Texnologik tizimlar (TT) - bu texnologik jihozlarning bo'laklari, avtomatik liniyalar, moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlar (MICHT).

2. Texnologik jarayonlar (TJ).

3. Texnologik uskunalarni ishlayotganda yuz beradigan fizikaviy va kimyoviy jarayonlar (FKJ).

Modellashtirish jarayoniga ikkita asosiy talab qo'yiladi. Birinchidan, modeldagi eksperiment originaldagi eksperimentga qaraganda soddaroq, tejamliroq, xavfsizroq bo'lishi kerak. Ikkinchidan, modelning sinovi asosida originalning parametrlarini hisoblashda qo'laniladigan qoidasi bizga ma'um bo'lishi kerak. Busiz eng yaxshi modellashtirish ham befoydali bo'lib qoladi. Toza ko'rinishda (alohida) berilgan obyektning matematik modellari kam qo'laniladi, ular quyidagidek kombinatsiyalangan. Masalan, TT matematik modellarida TJ matematik modellaridan foydalaniladi, ularda, o'z navbatida, FJ, KJ va FKJ matematik modellaridan foydalaniladi. Zamonaviy model termini bir necha ma'nolarda qo'laniladi. O'rganilayotgan obyekt tadqiqotning turli bosqichlarida o'mini bosuvchi qandaydir obyekt - bu modeldir. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun eng muhim xossalarini aksettiruvchi original obyektning maqsadli ko'rinishi - bu modeldir. Model - bu xayoliy tasavvurdagi yoki moddiy amalga oshirilgan tizim bo'lib, obyektning aks etishi yoki tadqiqot obyektini

tiklashihamda obyektни o‘rganish va u haqida yangi axborot keltirishmaqsadida uni o‘rni bosishi raumkin bo‘lgan tizim.

#### **Texnologik jaronlarni avtomatlashtirish.**

Avtomatlashtirish tizimlarini ishlab chiqish va bevosita ishlab chiqarish jarayonlariga joriy qilish - ko‘p bosqichli jarayondir. Unga ilmiy tadqiqot, loyihalash va montaj-sozlash ishlari, shuningdek, ishlatish jarayonida avtomatlashtirish tizimlarining ishonchli ishlashini ta‘minlovchi tadbirlar majmuasi kiradi. Zamonaviy ishlab chiqarishning ishlab chiqarish jarayonlarini atom almashishida hal qilinadigan masalalar mutaxassislardan turli avtomatlashtirish asboblarning tuzilish va ishlash prinsiplarini, avtomatik tizimlarning turli ko‘rinishlari va sinflarini yasash metodlarini bilishni ham texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish sohasidagi ishlar bilan birga aniq va bir qiymatli almashish mumkin boigan umumiy texnik tilni egallashni ham talab qiladi. Bu biror texnologik jarayonini avtomatlashtirishning mantiqiy hisoblangan va texnik jihatdan asoslangan tizimining avtomatlashtirish tizimlarini montaj qilish, sozlash va ishlatish masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun birday tushunarli bo‘ladigan tilda ifodalanishi kerak demakdir. Bunda barcha mutaxassislarda yaratilayotgan avtomatlashtirish tizimining asbob bilan ta‘minlanishi, berilgan roslash qonunlarini amalga oshirish, asboblarni va avtomatlashtirish vositalarini montaj qilish usullarini, impulsli va buyruq liniyalarini, va manba liniyalarini o‘tkazish sohasida tushuncha yagona bo‘lishi kerak. Bu, bir so‘zdan tushunishga, masalan, montaj ishlarida ishlovchilar tizimni ishlab chiqish yoki ishlatish jarayonida montajchilarning bevosita ishtirokisiz qay tarzda erishish mumkin? Bunday bir-birini tushunish maxsus ishlab chiqiladigan texnik hujjat vositasida ta‘minlanadi, bu hujjat texnologik jarayonni avtomatlashtirish loyihasi deyiladi. Texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. N.R.Yusupbekov, D.P.Muxitdinov. “Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari”- 2015 y.
2. N.R.Yusupbekov, B.I.Muhamedov, Sh.M.G‘ulomov “Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari”-1997 y.
3. Mansurov X.N. “Avtomatika va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish”-Toshkent 1987 y.

ob‘ektlarni bevosita boshqarishi lozim. Bu sharoitda boshqarish tizimidagi har qanday buzilish yoki chetga chiqish jarayonning normal borishini yuqotadi, bu esa katta qiymatdagi iqtisodiy yuqotishlarga olib keladi. TJABT faoliyatining ishonchliligiga quyiladigan talablar juda katta.

Tizimning ishonchliligini ta‘minlash uchun quyidagilar zarurdir:

1) tizim va uning komponentlari ishonchlilik parametrlarining optimal qiymatlarini aniqlash;

2) konkret tizim xususiyatlariga to‘la javob beruvchi va ishonchliligini oshiruvchi maxsus usullarni ishlab chiqish;

3) ishonchlilik va samaradorlik ko‘rsatkichlarini e‘tiborga olgan holda tarkib variantini tanlash;

4) talab etilgan ishonchlilikni ta‘minlovchi tizim texnik xizmatining shakl va tartibini o‘rnatish;

5) butun tizim va uning ayrim komponentlari uchun ishonchlilik sinovi dasturlarini mukammal ishlab chiqish.

Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi (ABT) axborotni to‘plash, ishlov berish va taqdim etishning texnik vositalari va algoritmlarining majmuasidan iborat bo‘lib, u korxonani yoki ayrim jarayonlarni kibernetika usullari asosida boshqarishni ta‘minlaydi. Boshqarish ob‘ektiga qarab texnologik jarayonlarni boshqarish tizimi va korxonalarni tashkiliy-ma‘muriy boshqarish tizimlari farq qilinadi. Ham u, ham bu vazifalarni qo‘shib olib boruvchi - integrallangan ABT (IABT) deb ataluvchi ABT ham bo‘lishi mumkin. ABT avtomatik tizimlardan farqli o‘laroq odam-mashina tizimlaridir. Bunday tizimlarda boshqarish vazifalari odam va texnik vositalar o‘rtasida bo‘linadi. Biroq avtomatlashtirilgan tizimlarning odam-mashina tabiati ABT da ayrim vazifalarni to‘liq avtomatlashtirish mumkinligini, ayniqsa, texnologik jarayonlarni bevosita raqamli boshqarish darajasida inkor etmaydi.

## ИНВЕРТОРНИНГ ҚЎШИМЧА ЭЛЕКТР ТАЪМИНОТИ МАНБАЛАРИ АСОСИДА ИШЛАШ ФУНКЦИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ

**Шаймардонов Ж.З.**

Бухоро муҳандислик-технология институти  
ТЖБАКТ кафедраси магистранти,  
Ўзбекистон, Бухоро

**Ибрагимов У.М.**

Бухоро муҳандислик-технология институти  
ТЖБАКТ кафедраси доценти PhD,  
Ўзбекистон, Бухоро

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада инверторнинг қўшимча электр таъминоти манбалари асосида ишлаш функциясини ишлаб чиқиш ҳақида сўз боради. Муаллиф техник маълумотлар ҳамда илмий манбаларга таяниб, мавжуд илмий-тарихий адабиётлар асосида муаммога аниқликлар киритган.


**Калит сўзлар:** Музей, кўргазма, бадийлик, лойиҳа, экспозиция.

### Кириш қисм (Introduction):

Бугунги кунда технологик жараёнларни узлуксиз ишлашни таъминлаш жуда долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Технологик жараёнлардаги узилишлар нафақат махсулот сифатига балки ҳар бир тўхталиш вақтида иқтисодий зарардан ташқари технологик жараёнда фойдаланилаётган ускуналарни ҳам тез ишдан чиқишига олиб келади. Шундай экан бизга бугунги кунда қатта сарф харажатсиз, яъни арзон нарҳда доимий узлуксиз электр манбааларини ташкил этиш жуда муҳим ҳисобланади. Бунда эса бизга инвенторлардан фойдаланиш энг мақбул усуллардан бири ҳисобланади.

### Асосий қисм (Main part):

Инверторнинг технологик жараёнларнинг узлуксиз ишлашни таъминлаш учун энг аввало инверторнинг ўзини узлуксиз электр манбаалари билан таъминлаш зарур. Биз ушбу мақсадимизга эришишимиз учун инверторнинг қўшимча электр таъминоти манбалари асосида ишлаш функциясини ишлаб чиқиш асосида технологик жараённи узлуксиз ишлашни таъминлашда инверторларни ахборот-коммуникация тизимлари асосида бошқаришнинг схемасини яратишни олдимизга мақсад қилиб қўйдик. Шу боисдан ҳам биз инверторнинг қўшимча электр таъминоти манбалари асосида ишлаш функциясини ишлаб чиқишнинг биринчи босқичида инверторларни тармоқ электр манбалари ҳамда қўшимча доимий ток манбалари билан электр токи етказиб берилишини лойиҳалаштирдик. Лойиҳа бошланғич қадамда 1-расмда келтирилган схематик кўринишига эга бўлади.



**1-расм. Инверторнинг қўшимча электр таъминоти манбалари асосида ишлаш функциясини ишлаб чиқиш схемаси**

Кўрғошин кислотали аккумулятор - бу ўртача нарҳдаги ҳисобланади, юқори қуввати туфайли кенг тарқалган батареядир. Асосан автоуловларда, фавқулдда қувват манбалари, захира қувват манбалари ва бошқа фаолиятларда қўлланилиши мумкин(2-расм).



**2-расм. Кўрғошин кислотали аккумулятор.**

Лойиҳамизда ушбу батареялардан фойдаланишимиз мумкин, лекин бу аккумуляторлар ишлангани хизмат кўрсатиш муддатини қисқартириб юбориши мумкин. Шу боисдан бугунги кунда энг мақбул аккумуляторлар ҳисобланиб келаётган доимий ток манбаъи сифатида никель-кадмий ва литий ионный аккумуляторларидан кенг фойдаланамиз (3-расм).



3-расм. никель-кадмий ва литий ионный аккумуляторлари

Ушбу доимий электр ток манбаларидан фойдаланишимизга асосий сабаб қилиб уларнинг узок муддат хизмат қилишлари, ҳажм жиҳатдан ихчам ва иш жараёнида экологик тоза ҳисобланиши ҳисобига етакчи манбадан эканлигидадир.

Жумладан бугунги кунда ўзининг электромобиллари билан жаҳон бозорида етакчилардан бири ҳисобланган Tesla компанияси ҳам ушбу аккумуляторлардан кенг фойдаланиб келмоқда[13].

Илон Маск келажакдаги электр транспорт воситалари учун янги батареяларни тақдим этди. Батареянинг янги ҳужайралари 6 баробар кучлироқ ва 5 баробар кучлироқ(4-расм).




4-расм. Тесламобилларда қўлланиладиган аккумулятор батареяси

Дарҳақиқат, Тесланинг янги литий - ионный батареялар элементлари қуввати элемент ҳажмини ошириш ҳисобига ўсди. Компания 4680 (диаметри 46 мм ва баландлиги 80 мм) деб номланган янги, каттароқ аккумулятор формасини тақдим этди. Илгари ишлатилган ва келажакда Тесла электр транспорт воситаларининг тортиш аккумуляторлари блокларида ишлатиладиган 2170 аккумулятор батареяси билан таққослаганда 4680 катакчанинг физик қуввати олти баравар катта.


Элементнинг ҳажми жиҳатидан сифими ҳатто кичрайганини кўриш жуда осон - у атиги беш баравар кўпайган. Бироқ, бу батареялар тўплами таркибиди озгина фойда келтиради, бу эса битта қувват олиш ҳажмини тахминан 16% га оширади[8].

Аккумуляторлар ривожланиб боргани сари уларни зарядлаш воситаларига ҳам талаб ортиб боради. Шу сабабдан лойиҳанинг кейинги босқичида аккумуляторларни муқобил электр токи билан таъминлаш ҳамда зарядсизланиш олдини олиш мақсадида қуёш панеллари орқали аккумуляторларни зарядлаш босқичини лойиҳасини қуйидаги схема бўйича шакллантирдик(5-расм).



5-расм. Аккумуляторни қуёш батареялари орқали зарядлаш схемаси. (K1 биринчи реленинг катушкаси)

Келтирилган ушбу схемада доимий электр ток манбаларини қуёш панеллари орқали зарядлаш ҳамда аккумуляторларнинг заряди тўлган вақтда эса автоматик зарядлашни тўхтатиш амалга оширилади. Шунингдек, қуёш панеллари билан зарядлаш ва инверторни аккумуляторларнинг электр токидан ишлашни таъминлаш мақсадида ҳозирда 4 та аккумуляторлардан йиғилган доимий электр токи манбаларидан инверторларга тушадиган юкларларни ҳисобга олган ҳолда параллел ёки кетма-кет уланиш схемасини қуйидагича кўринишда ушбу босқичда лойиҳалаштирилди (6-расм.).



6-расм. Аккумулятор батареяларини параллел ёки кетма-кет уланиш схемаси

Юқорида келтирилган барча электр схемалар лойиҳалаштириладиган инвертор билан узвий боғлиқ ҳолда ишлайди ҳамда инверторни лойиҳалаш вақтида бир платада йиғилиши мумкин бўлади.


**Натижалар ва муҳокамалар (Results and Discussions):**

Инверторнинг ишлаш жараёнида қанча электр энергияси истеъмол қилаётганлиги, истеъмолчини қанча электр энергияси билан таъминлаганлиги ва аккумулятор батареяларини зарядлаш учун қанча электр энергияси талаб қилинганлиги тўғрисида маълумотга эга бўлиб боришимиз ва келажакда кутилиши мумкин бўлган ҳодисаларни тахмин қилишимиз учун керак бўлади. Юқоридаги маълумотларни олишимиз учун инверторга кириш кучланиши ва ток кучини, инвертордан истеъмолчига узатиладиган кучланиш ва ток кучи ҳамда қуёш ва аккумулятор батареяларидаги ток кучи ва кучланишларни ўлчамимиз талаб этилади. Бу учун эса бизга ўзгартгичлар ва мос датчикларни танлаш керак бўлади.

Датчиклардан келаётган қийматни ўқиб олиш ва қайта ишлаш учун Arduino Uno микроконтроллеридан фойдалансак бўлади. Сабаби, инверторимизнинг тан нархи ва салд ишлаш ҳолатидаги истеъмол қуввати ошиб кетмаслиги учун ушбу микроконтроллерни танлаш мақсадга мувофиқ.


**Назоратлаш ва бошқариш**

Ўлчов ишларини амалга ошириш учун қуйидагича тартибда датчикларни танладик ва кўрсатилган ўлчов нукталарига ўрнатдик. Истеъмолчига узатиладиган электр токи қувватини мониторингини олиб бориш учун инвертордан чиқиш кучланиши ва токини ўлчаш датчиги сифатида Arduino учун PZEM-004T рақамли кўп функцияли кучланиш ва ток кучи ўлчагич модулини танладик(7-расм).



**7-расм. PZEM-004T рақамли кўп функцияли кучланиш ва ток кучи ўлчагич модули**

Модулнинг юраги SDIC Мисроелестронисс Со., Ltd компаниясининг электр энергиясини ўлчаш учун мўлжалланган SD3004 чипидир(8-расм).




**8-расм. SDIC Мисроелестронисс Со., Ltd компаниясининг электр энергиясини ўлчаш учун мўлжалланган SD3004 чипи**

Бундан ташқари, платада кодни қайтп юклаш чекловиға эға 256 байтли Atmel 24C02C EEPROM чипи ва кетма-кет интерфейснинг галваник изоляциясини таъминлайдиган иккита PC817 оптапара мавжуд(9-расм).



**9-расм. 256 байтли Atmel 24C02C EEPROM чипи ва кетма-кет интерфейснинг галваник изоляциясини таъминлайдиган иккита PC817 оптапара.**



**10-расм. PZEM-400T ни уланиш схемаси**

Юқоридаги электр уланиш схемаси PZEM-400T модулининг тармоққа ва Arduinoга уланиш портлари кўрсатилган[11].


Инверторга киришдаги ток кучи ва кучланишни ўлчаш учун ACS712 датчикдан фойдаланамиз(11-расм).



**11-расм. Инверторга киришдаги ток кучи ва кучланишни ўлчаш учун ACS712 датчиги**

Юқоридаги схемада датчикни тармоққа ва Arduino микропроцессорга уланиши кўрсатиб ўтилган[12].

Ушбу датчик билан инверторга киришдаги ток кучи ва кучланишни ўлчаган ҳолда, инверторнинг иш вақтидаги истеъмоли учун сарфлаётган қувватини аниқлаш ва аниқланган маълумотлар асосланиб қарорлар қабул қилишимиз мумкин бўлади.



**12-расм. Датчиклар, Arduino микроконтроллер ва инверторнинг функционал уланиш умумий схемаси**

Юқоридаги 12-расмда датчиклар, Arduino микроконтроллер ва инверторнинг функционал уланиш умумий схемаси келтирилган.

#### **Хулоса (Conclusion):**

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, ушбу схемани қўллаган ҳолда инверторнинг қўшимча электр таъминоти манбалари асосида ишлашни ташкил этишимиз мумкин ҳамда уларни ишлашни назоратлаш учун келажакда ахборот-коммуникация тизимларидан фойдаланган ҳолда дастурий бошқарувини яратиб, назоратлаш ва таҳлилилар учун маълуматларни йиғиш имкониятларин кенгайтиришимиз муминк бўлади.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Internet sayti: <https://lex.uz/docs/-4486125>
2. Internet sayti: <https://lex.uz/ru/docs/3221894>
3. Djuraev.Kh.F., Artikov A.A., Dodaev K.O., Hikmatov D.N., Safarov O.F., Mehmonov I.I. Intensification of the process of heat and mass transfer in the complex processing of agricultural products. // J. Storage and processing of agricultural raw materials. -2003. No. 11.-C47.
4. Клим Ю.М. Типовые элементы систем автоматического управления. -М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2004. -384 с.
5. Internet sayti: <https://hozir.org/1-maruz-mavzu-kompyuterning-arxitekturasining-rivojlanish-bos.html?page=6>
6. Internet sayti: <https://docplayer.ru/32978307-Sistemy-bespereboynogo-pitaniya-inventory-s-pereklyuchayushchim-ustroytvom-dlya-atomnyh-elektrostantsiy.html>
7. Internet sayti: <http://www.invertor.ru/obzor.html>
8. Internet sayti: <https://3dnews.ru/1021292>
9. Internet sayti: <http://www.rvip.ru/ups/1927/document1939.shtml>
10. Internet sayti: <https://avitech.kz/blog/ups/ups-for-factory/>
11. Internet sayti: <https://mysku.ru/blog/aliexpress/52206.html>
12. Internet sayti: <https://3d-diy.ru/wiki/arduino-datchiki/datchik-toka-ac3712/>
13. Internet sayti: <https://virtustec.ru/news/kakoj-akkumuljator-v-avtomobiljah-tesla.html#subtitle0>.

## FILOLOGIYA

## MAKTAB DARSlikLARIGa KIRITILGAN AYRIM HIKOYALARNING LINGVISTIK TAHLILI

*Qarshiyev Nasriddin Tirkashevich**Samarqand Davlat Universiteti O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi (PhD),  
O'zbekiston, Samarqand**Absayitova Shahlo To'iqinjon qizi**Samarqand Davlat Universiteti O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida magistranti,  
O'zbekiston, Samarqand*

## LINGUISTIC ANALYSIS OF SOME STORIES IN SCHOOL TEXTBOOKS

*Nasriddin Karshiyev**Teacher of Uzbek language and literature (PhD)  
Samarkand State University Uzbek-Finnish Pedagogical Institute,  
Uzbekistan, Samarkand**Shahlo Absayitova**Master's degree in Uzbek language and literature  
Samarkand State University Uzbek-Finnish Pedagogical Institute,  
Uzbekistan, Samarkand*

## ANNOTATSIYA

Maqolada hikoya janrining o'ziga xos xususiyati, hikoyaning kelib chiqish tarixi, hikoya-novellaning farqi, jahon adabiyotining hikoyanavislari va o'zbek adabiyotining hikoyanavislari haqida ma'lumot berilgan.

## ABSTRACT

The article provides information about the specifics of the story genre, the history of the story, the differences between the short story, the storytellers of world literature and the storytellers of Uzbek literature.

**Kalit so'zlar:** hikoya, novella, epik asarlar, hikoyaning novelladan farqi.

**Keywords:** story, short story, epic works, difference of story from short story.

Hikoya (arabcha. gapirib, so'zlab berish, qissa, tarix). Inson yoki narsa bilan bog'liq voqea-hodisalarning og'zaki bayoni deb hikoyaga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ta'rif berilgan. Epik turning eng kichik hajmli janri hisoblanadi. Hikoya janrida bir voqea hikoya qilinadi, A.P.Chexov ta'rif bilan aytilganda "Hikoyaning boshida multiq devorda osig'liq turgan bo'lsa, hikoya so'ngida multiq otilishi kerak". Dunyo adabiyotida italiyalik yozuvchi Bokachchoning "Dekameron" asari yuzta hikoyani o'z ichiga oladi, Gi de Mopasan (fransuz), O. Genri (amerika), o'zbek adabiyotida A.Qodiriy va Cho'lpon hikoyachilik janrining asoschilaridir. Yevropa adabiyotida hikoya novella ham deb atalgan. Tadqiqotchi A.Toshpo'latovning tahlilida novella va hikoya quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi; hikoyada – kitobxon asar qahramonidan ancha ilgari ketadi. Novellada – voqea kutilmaganda boshlama bilan boshlanadi. Hikoyada – majoziy obrazlardan foydalaniladi. Novellada – ziddiyatlar yechimini asar oxirigacha anglash qiyin. Hikoyada – yozuvchining hikoya qilish usuli borgan sari

mayinlashadi. Novellada – yaratilayotgan badiiy asar kitobxon uchun "yangilik". Hikoyada – voqealar bir maromda, silliq tuyg'umizga "alla" dek ta'sir qiladi. Novellada – oddiy ijtimoiy ma'no chiqariladi. Hikoyada – axloqiy odobga oid masalalar: ota-onaga hurmat, bolalar kabi muammolar yoritiladi. Novellada – qiziqarlilik, kutilmaganlik, inson xarakteriga tasodifiy lahza asosida nazar solish ustunlik qiladi [1.b.49]. Olimlarning ta'kidicha novellalar latifalardan o'sib chiqqan janr deb baholashadi. Novella janr sifatida realizm davrida shakllandi.A.Chexov an'anaviy motivlarni turmush va psixologiyaga chuqur kirib borish bilan almashtirishi novellani yangi bosqichga chiqardi. O'zbek adabiyotida novellaning ilk namunalarini N.Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida ko'rishimiz mumkin. Mumtoz novellalar didaktik yo'nalishda bo'lgan, "Uzum", "Luqmon va uning Xojisi" kabi hikoyalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. "Sulaymon qarindja bilan so'zlashgani" hikoyatida kishilik jamiyatidagi ayrim illat va kamchiliklar ustidan hukm chiqaradi. O'zbek adabiyotida ilk yozma

yodgorliklari Kultegin va To'nyuquq bitiktoshlarida bayon qilingan voqealarni misol qilib ko'rsatish mumkin. N. Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida axloqiy xarakterdagi hikoyalar, A. Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoniga kiritilgan "Hotam toyi hikoyati", "Sab'ai sayyor" dostonidagi 7 iqlimdan kelgan musofir hikoyalarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Sarlavha barcha epik asarlarning asosini tashkil etish bo'yicha hikoya janriga teng kelolmaydi. Hikoya eng kichik janr deb ta'riflanadi, shundan kelib chiqqan holda undagi har bir so'z qimmatlidir. Hikoyaning sarlavhasi hikoya hajmining yarmini mujassamlaydi. Maktab darsliklariga kiritilgan barcha hikoyalar shundan kelib chiqqan holda tanlangan. A. Qahhorning "Anor", "Bemor", "O'g'ri"; G'. G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyalarini misol tariqasida ko'rsatish mumkin. A. Qahhorning "Bemor" hikoyasida quyidagi lisoniy birliklar hikoyaning mazmunini boyitgan: ko'zi tindi, so'yib qonladi (metonimiya) kabi iboralar; o'ladigan bo'lganda (evfemizm), bemor og'irlashdi, xotinini oyoqqa bostirib berish, Bahoviddinga, G'avsula'zamga-chi, talvasaga tushmoq, duosi ijobat bo'ladi (metonimiya), osmon yiroq, er qattiq; yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi kabi maqollardan keng foydalanilgan. Hikoyada ishtirok etuvchilar Sotiboldi, uning xotini va 4 yashar qizi hikoyaning nomlanishi zamon va jamiyatning bemorligidan darak beradi. Sotiboldi go'yo barcha tashvishlarning xaridorligiga o'xshaydi; xotining kasal bo'lishi, davolash uchun "tabib", baxshi kampirni chaqirishi, 4 yashar qizining duolari xaridoridir. Hikoyaning ixchamligi qizi 4 yasharligi Sotiboldining yosh oilaning qo'lining kaltaligi, to'qigan savatchasining puli xotining "chillasi"ni qildirishga yetmaganidan aniqlash mumkin. Zamonning bemorligi Sotiboldini xotining kasali aniqmasligi, lekin xotinini tol chiviq bilan savalash, qon olish, kasalxonaga yotqizish uchun pulning yo'qligi, yosh xotinning kundan kun yomonlashayotganini ko'rib turgan Sotiboldining tomoshabin bo'lib turishi, tabiiydek tuyuladi. Hikoyaning mazmun-mohiyati, ta'sir kuchi hali bu bilan tugamaydi. Do'xtirxona bor,

qo'lida pul o'ynagan boylar og'ir mehnat qilishga Sotiboldi bor, Faqat insof yo'q, 4 yashar qizning duosidan boshqa narsa yo'q.

Adib o'zbek hikoyachiligiga katta hissa qo'shgan ijodkorlardan biri sanaladi. Uning hikoyalari qisqaligi, real hayotiy voqealarga asoslangani, shuningdek, o'ziga xos badiiy uslubi bilan ajralib turadi. O. Yoqubov o'z hikoyalarida ulkan tarixiy yoki favqulodda jahonshumul hodisalarni qalamga olmaydi. Balki oddiy bolaning kattalar tashvishiga o'ralashib qolishi, bir tomondan juda sodda ko'ringan voqealarni qiziqarli bayon qiladi; unga mahorat bilan badiiy bo'yoq beradi. Adibning "Muzqaymoq" hikoyasida hayotning mazmuni, yoshlik faslining qadri, og'ir qismatning bola tilidan hikoya qilinishi, hayot hamisha go'zal, ayniqsa, saodatli bo'lmasligi hikoyaning asosidir. Hikoyada badiiy nutqning go'zal bezaklari – o'xshatishlar, iboralardan foydalanilgan. Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasida qo'llangan iboralar: ko'nglim g'am, mash'um kun, qora kun; evfemizmlar - bitta shaltoq buzoq bir podani buzadi, kulfat tushgan kun ko'zlari o'yib olingan.

Novellaning paydo bo'lishida Italiya adabiyotining o'rni katta, Italiya badiiy nasrining eng qadimgi namunalardan biri sifatida talqin etilib, eng qadimgi muallifi noma'lum janrlardan biri, italyancha "yangilik" so'zidan olingan Bokachecho o'zining mashhur "Dekameron" asari bilan hikoya novellaga poydevor yaratdi. Novellaning ichki qurilishi hazil-mutoyiba yo'g'riligan janr hisoblangan. Novellaning ilk namunalari she'riy yo'l bilan yozilgan. O'zbek adabiyotida A. Navoiyning "Lison-ut tayr" dostonining so'ngida she'riy-novellalar namunalari mavjud. E. Vohidovning "Donishqishloq latifalari" va A. Oripovning "Hangoma" ruhidagi she'rlari ham she'riy novellalar namunasi. Asarning bosh qahramonlari esa hamma narsaga qodir, hokimi mutlaq oddiy insonlardan iborat. Asardagi voqealarning tez rivojlanishi, dialoglarning jonliligi va ifodalarning aniqligi, asar tilida xalq maqollarini ko'plab uchrashi asarni boyitadi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Toshpo'latov . Hikoya novella. Samarqand. 2012. SamDU nashriyoti.
2. A. Qahhor. Asarlar. 1-tom. 2012-yil
3. 5-sinf Adabiyot darsligi. 2017-yil.
4. Sherzodovich, A.S., & kizi, R.Z. D. (2020). Interpretation and Written Translation: Related Learning. INTERPRETATION, 6(6).
5. Аслонова, Ш.И. (2020). Проблемы педагогических технологий в обучении молодёжи в высших учебных заведениях. Интернаука, (21-1), 59-60.
6. Sherzodovich, A.S. (2020). The role of online teaching and innovative methods. *Science and education*, 1(3), 524-528.
7. Аслонов, Ш.Ш. (2020). Компьютерная лингвистика и филология: проблемы и решения. Гуманитарный трактат, (84), 17-19.
8. Aslonov, S., & Ruzimurodova, Z. (2020). THE USE OF ACRONYMS AND INITIALISMS IN BUSSINES ENGLISH. Студенческий вестник, (12-5), 34-35.
9. Umida, K., Zarina, R., & Shahram, A. (2020). Characteristics, significance and role of motivation problms in foreign language learning. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 61-65.
10. Баенханова, И. (2019). Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (71)), 64-66.

*ДЛЯ ЗАМЕТОК*

# «ИНТЕРНАУКА»

*Научный журнал*

№ 15(238)  
Апрель 2022


Часть 7

В авторской редакции  
Мнение авторов может не совпадать с позицией редакции

Издательство «Интернаука»  
123182, г. Москва, ул. Академика Бочвара, д. 5, корпус. 2, к. 115  
E-mail: [mail@internauka.org](mailto:mail@internauka.org)

Отпечатано в полном соответствии с качеством предоставленного  
оригинал-макета в типографии «Allprint»  
630004, г. Новосибирск, Вокзальная магистраль, 3

16+



Свидетельство о регистрации СМИ:  
ЭЛ № ФС77-66291 от 01 июля 2016 г.